

Ajniyoz nomidagi NDPI Tarix fakulteti “Milliy g’oya,
ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida 4-b bosqich
talabasi Eshjonov Jasurbekning
“Milliy g’oya, targ’iboti texnologiyalari” fanidan

KURS ISHI



Mavzu: Globalashuvning obyektiv asoslari.

Bajardi:

Eshjonov Jasur

Qabul qildi:

Ametov Axmet

Nukus-2016

Mavzu: Globallashuvning obyektiv asoslari.

Reja:

Kirish:.....3

I.bob. Globallashuv tushinchasi va uning mohiyati5-22

I.1. Globalashuv tushinchasi va asosiy xususiyatlarning namayon bo'lish yo'llari. . 5-11

I 2. Globallashuv universallashtirish jarayoni sifatidagi o'rni. 11-22

II bob. Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlar..... 22-41

II. 1. Dunyo miqiyosida ro'y berayotgan globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari, va uning masalalari. 22-28

II. 2. Globallashuvning obyektiv maqsadi va vazifasi. 28-36

II. 3. Globallashuv va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi. 36-41

Xulosa. 42

Foydalangan adabiyotlar. 43-44

KIRISH

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshimizdan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashomoqdamiz.

Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunoslar, sharhlovchilar va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir taffakur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.

Albattda, bu fikirlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Chunki ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi-alomatlarini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qiloyotganini sog'lom fikirlaydigan har qanday odam, albatda, kuzatishi, muqarrar.

Bu haqida gapirganda ta'biri joiz bo'lsa, aytish mumkinki, **bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro' poligo'nlardan ham ko'proq kuchga ega.** Bu masalaning kishini doimo ogoh bolishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy taziqi bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgaridek, ha, bu voqea bizda juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, dep beparova qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada ketishi hech gap emasa.

Mavzuning maqsadi va vazifalari. Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televideniya, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va malumotlarni olmoqda. Jaxon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chir nab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tamonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan, o'rab olish, hech shubhasiz, zamoning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qa'tiy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz.

Binobarin biz davlatimiz kelajagini o'z qobiliyatimizga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarini chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib davlat va jamiyat boshqaruvni erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o'z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz.

Muxtasar qilib aytganda, yoshlarimizning ma'naviy olamizga boshliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbini va ongida sag'lom hayot tarizi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bololik paytidan boshlab shakillantirishimiz zarur. Shuni unitmaslik keraki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yonaltirilgan bir qarashda arzi mas bolib tuyiladigan kichkina xabarlar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararni hech narsa bilan qoplab bolmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

Mavzuning obekti va predmeti. Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha - qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak

aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudrati kuchga aylanadi.

Ayniqsa, bugungi kunda xalqoro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalarga erishish uchun << Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish >> niqobi ostida amalga oshirayotgan uzoqni ko'zlagan siyosatning aslo mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada ayrim qudratli davlatlar tamonidan muayan mamlakatlarga ega bo'lgan hududlarga nisbatan olib borayotgan ana shunday g'arazli siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch hayotning izdan chiqishini, hokimiyat tepasiga aynan o'sha davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bog'liq misollarda ko'rish qiyin emas.

Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana va yana bir bor xalqimizning ma'naviy olamini bunday tahdidlar asrash, hozirgi o'ta murakkab bir zamonda xalqoro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikriga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida etibor berish lozim. Ya'ni kommunistik mafkura va uning axloq noi'rmalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutloqa yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan << **Ommaviy madaniyat** >> yopirilib kirib kelishi mumkinligi unutmazlik kerak.

Kurs ishiming tuzilishi: Mavzu, Kirish, Ikki bob, beshta paragraf, Xulosa, Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I – bob. Globallashuv tushinchasi va uning mohiyati.

I.1 Globallashuv tushinchasi va asosiy xususiyatlarning namayon bo'lish yo'llari.

Globallashuv- lotincha “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. “Global” tushunchasi lug‘aviy ma'nosi nuqtai nazaridan fransuz tilida “umumiy”, lotin tilida esa “globus”-Yer shari” ma'nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma'noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan katta muammolarni, “sayyoraviy”, “dunyoviy” muammolarni, global taraqqiyot istiqbollari o‘ziga qamrab oladi.

Globallashuv atamasi Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora tadbirlarbor 1960 yil Giddins tomonidan foydalanilgan¹. Bu atama XX asrning 90-yillarigicha deyarli foydalanilmagan. 1985 yilga kelib amerikalik sotsiolog R. Robertson «globallashuv» atamasiga tushuncha bergan². Globalizatsiya atamasi birinchi bo‘lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981 yildan beri qo‘llanilib kelingan. Ammo bu so‘zning to‘liq ma‘nosi, konsepsiyasi 1990 yilning yarmida amerikalik olim CHARlz Taz Rassel tomonidan to‘liq ochib berilgan.

“Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983 yili «Garvard biznes rev`yu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo‘llangan. T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan^{3[1]}. Mazkur ta`rifda globallashuv jarayonining iqtisodiy tamonlariga e`tibor berilgan. O`z davrida frantsuz faylasufi Rene Dekart “Tushunchalar ma`nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi” - deb yozgan edi. Ayni shu ma`noda dastlab biz “globallashuv” tushunchasining istilohiy ma`nosini izohlashga harakat

¹ Шахрай С.М. Глобализация в современном мире: политико-правовые аспекты. – СПб : Фонд поддержки науки и образования в области правоохранительной деятельности «Университет»,2004.С.6

² Что такая глобализация? По сайту <http://www.univer.omsk.su/omsk/socstuds/glob/index.html>

³ Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T.: Ma`naviyat, 2006. 8-b.

qilamiz. Bu soʻzga quyidagicha tarif berish mumkin: Globallashuv – Jahon xoʻjaligi rivojlanishining obʻektiv jarayoni boʻlib, juda koʻp ijobiy xususiyatlarga egadir: bular asosan turli mamlakatlar xoʻjaligining oʻzaro aloqasi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilm – fan texnika texnologiya yutuqlari almashuvini tezlashishni hamda davlatlarni ilmiy texnikaviy taraqqiyotiga koʻmaklashuv bilan tasdiqlanadi. Globallashuv — butunjahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurlarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatining qoʻshilish va yaqinlashuvidir. Bu obʻektiv jarayon boʻlib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega.⁴ Globallashuvga qarshi harakatlar ham mavjud boʻlib, ular globallashuv natijasida yuzaga keladigan va kelayotgan muammolarni oqibati salbiy deb eʼtirof etishadi. Bunday tashkilot, uyushma, harakatlarga Green, AntiDaos kabi bir necha antiglobalistlarni kiritish mumkin. Globallashuv bosqichiga mintaqalashuv bosqichini bosib oʻtish lozim.

Vaholanki, globallashuv yaxlit jarayonlarni oʻz ichiga qamrab oladi. A.Ochildievning taʼkidlashicha, “...eng umumiy maʼnoda, globallashuv, bir tomondan, muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun Er yuzini qamrab olganini, ikkinchi tomondan, ularning insoniyat taqdiriga dahldor ekanini anglatadi”^{5[2]}. V.I.Danilov-Danilʼyan esa “Globallashuv koʻproq mantiqdan emas, balki tarixiy paradigmadan kelib chiqqan soʻzdir. Globallashuv jihatlarining oʻzaro aloqadorligini aniq va ravshan tahlili mavjud emas”^{6[3]}, - deb yozgan edi. YUqoridagi taʼriflardan koʻrinadiki, globallashuv jarayoni oʻzining murakkabligi va serqirraligi bilan alohida ajralib turadi. SHuning uchun ham S.Otamuratov “...globallashuv tushunchasi haqidagi qarashlar turli-tumanligicha davom etib kelmoqda. Bu tabiiy hol. CHunki uning makon va zamonda sodir boʻlish xususiyatlari turlicha boʻlib dunyoning oʻzgarishiga oʻtkazayotgan taʼsirida

4 Глобализация ru.wikipedia.org сайтидан олинб таржима қилинди (таржима Усманов М.)

⁵ Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – T.: Muharrir nashriyoti, 2009. 64 b.

⁶ Danilov-Danilyan V.I.Ustoychivoje razvitie-problema vijivaniya cheloveka//.Nauka.Obshestvo.CHelovek.-M.,2004. -143 s.

ham yangi-yangi imkoniyatlari namoyon bo`lmoqda”^{7[4]}. 1980-1990 yillar bo’sag’asida “globallashtirish” tushunchasi yangi talqinga ega bo’ldi: asli yaponiyalik keyinroq amerikalik mashhur iqtisodchi K.Ome ta’riflab bergan mazkur atamaning ommaga tushunarli bo’lgan ifodasidan jahon xo’jaligi rivojlanishining nisbatan yangi qirralari va tavsiflari, uning dastlabki taraqqiyot bosqichlaridan farqlanuvchi hozirgi holatini ko’rsatish uchun tatbiq eta boshladilar.

Proffesor A. Katsovich globallashtirish jarayonini tasvirli yoritilishi va jahon xo’jaligining yangi tavsiflari yuzaga kelishi: “Globallashtirish chegaralar orqali iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni intensivikasiya qilish orqali aniqlanishi mumkin. Globallashtirish – bu erkin savdo to’g’risidagi bitimlar uyg’unligi, jahonni yagona va o’ta raqobatli bozorga aylantirgan Internet hamda moliyaviy bozorlarning birlashishidir”, degan taklifni kiritadi⁸.

Jahon olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot-larda «Globallashuv» tushunchasiga turli ta’riflar berilmoqda va unga turli qarashlar va munosabatlarni bildirish davom etib kel-moqda. Lekin uning er kurrasining bir butunligini ifodalash va barcha soqalarning «yagonaligini» ta’minlash jarayoni, omili si-fatida qarash umumiy qarashlardan ustuvor bo’lib kelmoqda. Jum-ladan, rus olimi I. Burikova globallashuvni jarayon sifatida qaraydi va olimlar tomonidan unga nisbatan qarashlarni umum-lashtirib, uning uchta asosiy jihatini ko’rsatadi:

Bilim jihatlari - globallashuv jarayoni haqida nimalar ma’lumligi.

Emotsional - bu ma’lumotga qanday yondoshuv zarurligi.

Axloqiy - nima qilish kerak ekanligi.⁵

Uning ta’kidlashicha, Sankt-Peterburg Universitetining siyo-siy psixologiya fakulteti psixologlari globallashuvni jaxrnda siyosiy qokimiyatning yangi shakli sifatida tushunadilar. Bu siyo-siy hokimiyat yangi shakllarining instrumentlari quyidagilardir:

informatsion globallashuv - informatsiya soh_ asidagi o’zgarishlar;

iqtisodiy globallashuv - iqtisodiy soqadagi o’zgarishlar;

mintaqaviy globallashuv - hududlar va chegaralar sohasidagi o’zgarishlar;

⁷ Otamuratov S. Globallashuv va millat. – T., YAngi asr avlodi, 2008. – 13 b.

⁸ Kacovicz A. Regionalization, Globalization and Nationalism // Alternatives. 1999.04. P. 529.

demografik globallashuv - globallashuvning asosiy instrumenti bo'lib, insondagi barcha asosiy o'zgarishlarni o'ziga qamrab oluvchi o'zgarishlardir.

Shuningdek, muallif ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil fikr yuritgan.⁶

Yana bir rus olimi L.E. Grinning fikricha, «Globallashuv -mintaqalar va umuman jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir».⁷U globallashuvga jarayon sifatida qaraydi va unga quyidagi ta'rifni beradi. «Globallashuv - bu jarayon, uning natijasida dunyo o'zining barcha sub'ektlariga yanada aloqador va yana qam bog'liq bo'ladi»⁸.

Rus olimlaridan yana biri professor A.G. Kosichenko qam globallashuvga jarayon sifatida qaraydi. U shunday yozadi: «Globallashuv ko'p o'lchamli jarayon, u o'z ta'sir doirasiga gurlu usul va vositalar bilan barcha soqalarni qamrab oladi». Ayni paytda uning fikricha, «iqtisodiyotning o'ziga xos qukmronlik ta'siri bugun jahon hayotining barcha sohalorida namoyon bo'lmoqda».

2006 yilda «Globallashuv» tushunchasi va uning turli sohalarga o'tkazayotgan ta'sirini aniqlashga bag'ishlangan jahonning etakchi olimlari qamkorligida «Globalistika mejdunarodnsh mejdissiplinarnsh ensiklopedicheskiy slovar» tayyorlanib e'lon qilindi. Unda globallashuv tushunchasiga olimlar turlicha ta'rif berganlar va uning ta'sir doirasini aniqlashga qarakat qilingan. Jumladan, amerika-lik olim T.Fridman bu qaqda shunday ta'kidlaydi: «Globallashuv - bu «sovuq urush tizimini» almashtirgan yangi tizim»¹⁰. Keltirilgan fikrdan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyotda kechayotgan globallashuv jamiyat, mamlakat va xalqlar qayotining barcha soqalariga o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. SHuning bilan birga uni o'z davrida jahonni larzaga solgan va butun insoniyatga xavf tug'dirgan «sovuq urush» bilan tenglashtirgan mualliflar qam bor. Haqiqatdan qam, yuqorida mualliflar tomonidan ilgari surilayotgan fikrlarda globallashuvning iqtisodiyotga, siyosatga va jahon miqyosidagi jarayon-larga o'tkazayotgan ta'siri keng qamrovli ekanligi ko'rsatib berilgan. Ayniqsa uning iqtisodiyotga o'tkazayotgan ta'siriga asosiy e'tibor berilganligini ta'kidlash lozim. Haqiqatan qam iqtisodiyot-dan manfaatdor bo'lmagan insonning o'zi yo'q. U inson h.ayot

kechiri-shining moddiy asosini tashkil qiladi. SHuning uchun qam iqtiso-diyotdagi globallashuv milliy ma'naviyatda ham o'z ifodasini topa-di. Afsuski, yuqorida mualliflar tomonidan bildirilgan fikr-lardan ko'rinib turibdiki, globallashuvning milliy ma'naviyatga o'tkazayotgan salbiy ta'siri e'tibordan chetda qoldirilgan. Bu ja-rayonda iqtisodiy globallashuv milliy ma'naviyatning globallashu-vida vosita vazifasini bajaradi. Ana shu muqim jiqat muallif-lar e'tiboridan chetda qolganligini ko'rish mumkin. SHuning bi-lan birga T. Fridmanning globallashuvning «sovuq urush» siyosati bilan tenglashtirilganligi zamirida ham katta ma'no bor. Haqiqatdan ham bugun u butun insoniyat, ayniqsa uning oliy qadriyatlaridan biri bo'lgan millatlar taqdiriga solayotgan tahdidini «sovuq urush» siyosatiga tenglashtirish mumkin. Respublikamizda qam tadq-iqotchilarimiz tomonidan globallashuv jarayonini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Hali bu masalaga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlar e'lon qilinmagan bo'lsa qam bir qator ilmiy jiqatdan pishiq bo'lgan maqolalar e'lon qilinganligini ta'kidlash lozim. Jumladan, «Globallashuv ziddiyatlari»,¹¹ «Ada-biyotida globallashuv jarayoni»,¹² «Xalqaro globallashuvning chuqurlashuvi»¹³ va boshqa maqolalarda uning ba'zi bir jiqatlariga to'la-qonli ta'rif keltiriladi. Aytish joizki, mazkur maqolalarda ham «Globallashuv» jarayon sifatida talqin etilganligini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, globallashuvni turli soqalarda sodir bo'layot-gan integratsiyalashuvning natijasi sifatida qarashlar ustuvorlik qiladi. Bunday qarash mazmunini dunyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning tabiiy ravishda mustaqkamlanib borishi va ularning o'zaro integratsiyalashuvi natijasi sifatida, sub'ek-tiv omillar ta'siri, ya'ni katta iqtisodiy saloqiyatga ega bo'lgan davlatlarning kam taraqqiy qilgan mamlakatlarning resurslari-ni turli yo'l va vositalar bilan qo'lga kiritish maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlarning natijasi sifatida qarashlar ham mavjud. Xullas, globallashuv tushunchasi qaqidagi qarashlar tur-li-tumanligicha davom etib kelmoqda. Bu tabiiy qol. Chunki uning makon va zamonda sodir bo'lish xususiyatlari turlicha bo'lib dunyo-ning o'zgarishiga o'tkazayotgan ta'sirida qam yangi-yangi imkoniyat-lari namoyon bo'lmoqda.

«Globallashuv» tushunchasiga mualliflar tomonidan yuqorida ilgari surilayotgan turli fikrlarga qo‘shilish mumkin. Chunki har bir muallif uning turli sohalariga o‘tkazayotgan ta’sirini turlicha ta-fakkur qiladi va uni turlicha talqin etadi. Boz ustiga globalla-shuvning o‘tkazayotgan ta’sir doirasi bepoyon va keng qamrovli ham-dir. Shu ma’noda mualliflar tomonidan ilgari surilayotgan fikr-lar qanchalik turli-tuman bo‘lsa, uning turli xususiyatlari va in-soniyat, millat, mamlakat, jahon miqyosida o‘tkazayotgan ta’sirini o‘rganishning imkoniyatlari shunchalik kengayib boradi. Avvalo «globallashuv» tushunchasiga ta’rif berishda, unga haqiqatan ham kengroq va chuqurroq yondoshmoq kerak bo‘ladi. Jumladan, yuqorida berilayotgan ta’riflarning aksariyat ko‘pchiligida «globallashuv» tushunchasiga yaqin bo‘lgan «internatsionallashuv» (baynalminalla-shuv) va «integratsiyalashuv» tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlar e’tibordan chetda qolib kelmoqda. Ya’ni nega «Globallashuv» tu-shuncha sifatida ommaviylashib ketmoqda yoki «internatsionalla-shuv» va «integratsiyalashuv» tushunchalari unga nisbatan kam qo‘lla-nilmoqda degan savolga javob ochiq qolib kelmoqda.

Aslida, «Globallashuv»ning asl mohiyati va uning barcha soha-larga o‘tkazayotgan ta’sir doirasini bilish uchun uni yuqorida kel-tirilayotgan ikkala tushuncha bilan solishtirish maqsadga muvofiq-dir. Chunki ular o‘rtasida ma’lum o‘xshashlik mavjud. Ayni paytda ular o‘z yo‘nalishi, maqsadi va funksiyalari bilan o‘zaro farqlanadi. Shuning bilan birga ularning tushuncha sifatida ilmiy iste’molga kirish davrlari o‘rtasida ham farqlar mavjud. Ayniqsa, «internatsionallashuv» sobiq sho‘rolar qukmronligi sharoitida eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchaga aylangan edi. Uni millatlarning o‘za-ro qo‘shilib ketishiga olib keladigan ijobiy omil sifatida baqo-lashdan tortib, oila, turmush, milliy madaniyatlarning yagona ma-daniyatga aylanishigacha bo‘lgan barcha soqalarda sobiq KPSSning «internatsionallashtirish» borasida olib borgan zo‘ravonlik siyosatini aholidan yashirish maqsadida qo‘llanilib kelinar edi.

Lekin bu aslida internatsionallashuv jarayoni bo‘lmagan edi, degan gap emas, balki bu erda uni jirkanch manfaat va maqsadlarni amalga oshirish yo‘lida qo‘llanilib kelinganligi qaqida so‘z bor-moqda.

Yana yuqoridagi tushunchalar taxliliga qaytib shuni aloqida ta'kidlash lozimki, bugun bir qator olimlar globallashuv jarayon sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida amal qilgan, degan fikrlarni ham ilgari surmoqdalar. Hatto qadim dunyo xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarning yuzaga kelishi va rivojlanish jarayonlarini «globallashuv» bilan bog'lash to'g'risidagi fikrlar ham uchraydi. Jumladan, yuqorida tilga olingan maqolada Muhammadjon Xolbekov: «Moziyga qaytaylik. Miloddan ol-dingi IV asrda yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy butun Osiyoni qurol kuchi bilan zabt qilib, aslida yarim dunyoni birlash-tirmoqchi, qudratli davlat barpo etmoqchi bo'lgan va shu tariqa insoniyat tarixida globallashuv jarayonning boshlab bergan. Yoki miloddan oldingi I asrda Rim imperatori Yuliy Sezar ham xuddi shunday yo'l tutib, butun yvropo'ni ishg'ol qilgan va qudratli imperiya sarqadlarini kengaytirgan. Ta'bir joiz bo'lsa, insoniyat tarixida zo'ravonlik bilan bo'lsada, ikkinchi globallashuvga asos solgan»,¹⁴ deb yozadi. O'rta asrlarda IX-XI, XIV-XVI, XVIII, XIX va XX asrlarda ham globallashuv jarayonining sodir bo'lganligini ko'ramiz. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti bosqichlarida sodir bo'lgan turli «birlashtirishlar», «sivilizatsiyalar», «ma'rifatchilik» harakatlar globallashuv jarayonini yuzaga keltirgan.

Xullas, globallashuv tushunchasi va uning boshlanish davri haqida turli fikrlar ilgari surilishi davom etmoqda.

I.2 Globallashuv universallashtirish jarayoni sifatidagi o'rni.

Globallashuv tushunchasi uning ma'no mazmuni va insoniyat taraqqiyotidagi o'rni masalasiga qiziqish ortib bormoqda. Globallashuv jarayoni yer yuzidagi mamlakat va xalqlarni shu darajada uzviy bog'lab qo'ymoqdaki bu ni bashariyat tarixida shu paytga qadar hech qaysi vosita amalga oshira olmagan. Bu jarayon shunchalik kuchayib bormoqdaki hozirdanoq dunyoning biron bir hududi uning ta'siridan hali qolayotgani yo'q. O'tgan asrning oxirlarida paydo bo'lgan globallashuv atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va ma'naviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini ifoda etar edi. Globallashuv shunday jarayonni undan chetga turaman degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin.

Bunday g`ayri ixtiyoriy ta`sir esa ko`pincha salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Mustaqillik davrida mamlakatlarimiz olimlari o`tkazgan va o`tkazayotgan tadqiqotlar tahlili bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan darak beradi.

Globallashuvga berilgan ta`riflar juda ko`p lekin uning xususiyatlarini to`laroq qamrab olagani, bizningcha frantsuz tadqiqotchisi B. Bandi bergan ta`rifdir. Unga globallashuv jarayonining uch o`lchovli ekaniga urg`u beriladi.

Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon.

Globallashuv - jahonning gomogollashuvi va universallashuvi jarayoni

Globallashuv - milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni.

Bu ta`rifga keltirilgan globallashuv o`lchovlarining har o`lchashga nisbatan ham muayyan e`rozlar bildirishi mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak ularning har o`lchovi ham unda mavjud ekanini ko`ramiz. Globallashuv tarafdorlari globalistlar deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko`proq uchraydi.

Rossiyada bo`lib o`tgan Aksigloballashuv sektorlari anjumanidagi ma`ruzasi A. Parshovil fikricha globallashuvnig asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarga ishlab chiqarilgan.

O`tgan asrning oxirlarida paydo bo`lgan "globallashuv" atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va moliyaviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini ifoda etar edi. Bugungi kunga kelib esa u keng qamrovli tushunchaga aylandi. U davlatlar va xalqlar hayotining barcha sohalarida yalpi umumlashuv jarayonini anglatmoqda. Garchand globallashuv jarayoni birdaniga paydo bo`lib qolmagan, balki inson yaralgan paytdan boshlab sodda va tabiiy shaklda davom etib kelgan bo`lsada, hozirgi vaktida insonning o`z manfaatlari yo`lida tabiiy rivojlanish jarayoniga zo`ravonlarcha aralashuvi natijasida shiddatli ravishda tezlashib ketdi.

Albatta, bir tomondan qaraganda, bu jarayonning ijobiy jihatlari ham yo`q emas. Chunonchi, ko`pgina mamlakatlarga fan-texnika, texnologiya yutuklarining jadal kirib kelishi globallashuv tufayli. Bu esa ularning iqtisodiy hayoti rivojiga, xalqlar turmush darajasining ortishiga ijobiy ta`sir ko`rsatmoqda.

Shu tariqa bashariyatning umumiy intellektual salo-hiyati yuksalishiga yordam bermoqda.

Ikkinchi tomondan, globallashuvning salbiy oqibatlarini ham ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Jumladan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy tafovutlarning kuchayishi, ayniqsa, zamonaviy telekommunikatsiya, komp'yuter, internet vositalari orkali biron bir hududga xos milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'zga xalqlarga singdirish va shu yo'l bilan jahonda nafaqat iqtisodiy, balki milliy-ma'naviy hukmronlikni o'rnatishga urinish hollari ham kuzatilmoqda. Bu jarayon XXI asrga kelib XX asrdagiga Karaganda ham keng qamrov kasb etdi, ta'sir imkoniyatini oshirdi, eng yomoni, ko'pgina rivojlangan mamlakatlar jahonda iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, fan-texnika, texnologiya, ta'lim sohasida rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish, demokratik qadriyatlarni keng yoyish bahonasida milliy-ma'naviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmokda. SHu jihatdan qaraganda, globallashuv jarayoni endigina rivojlanish yo'liga kirgan yoki rivojlanayotgan mamlakatlardan ko'ra yuksak taraqqiy etgan davlatlar manfaati uchun ko'proq xizmat qilmoqda. Qudratli davlatlar, ulkan imkoniyatlariga tayangan holda, kam taraqqiy qilgan mamlakatlarning moddiy resurslarini o'zlashtirmokda, bozorlarini egallamokda. Bu esa iqtisodiy zaif mamlakatlarning taraqqiyot borasida mustaqil yo'l tutish imkoniyatlarini cheklab ko'yayotir. CHunki ishlab chiqarishni tashkil qilish va amalga oshirish uchun zarur texnika, texnologiya hamda ilmiy ishlanmalar rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zida tayyorlanmay, chetdan olib kelinmoqda. SHu tariqa rivojlanayotgan mamlakatlar yuksak taraqqiy etgan mamlakatlarga bog'lanib qolishga, yana ham aniqrog'i, qaramlikka mahkum bo'layotir. Boshqacha aytganda, globallashuv bosqinchilikning yangi bir shaklini boshlab bermoqda.

Siyosiy fanidagi modernizatsiya, vesternizatsiya, universalizatsiya kabi globalizatsiya ham universal definitsiyaga ega emas. Bu fenomen olimlar va fan arboblari tomonidan turlicha talqin etiladi. Shunga qaramasdan ular mohiyatan yagona mazmunni anglatadi, ya'ni globallashuv frantsuzcha «umumiy» degan

ma`noni anglatib, butun insoniyat hamjamiyatining o`zaro iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarini qamrovchi jarayon sifatida talqin etiladi.

Ilmiy adabiyotda globalizatsiya jarayoni haqida dastlab amerikalik olimlar fikr yuritishgan deb qabul qilingan. «Globalizatsiya» terminini birinchi bo`lib T.Livettu o`zining 1983 yilda nashr etilgan «Garvard biznes rev`yu» maqolasida qo`llagan bo`lib, unda globallashuv yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qo`shilish fenomeni sifatida qaralgan.

Garvard biznes maktabi maslahatchisi yapon Kenichi Omae o`zining 1990 yilda nashr etilgan «CHegarasiz dunyo» asarida ushbu terminga kengroq ta`rif beradi. Uning fikricha, kishilar, firmalar va bozorlarning ahamiyati tobora oshib, davlatning nufuzi qisqarib boradi. Globallashuv erasida barcha xalqlar va jarayonlar global bozorning ta`siriga tushadi, an`anaviy davlat esa o`zining tabiiyligini yo`qotib biznesdagi hamkor sifatida yaroqsiz bo`lib qoladi. Xalqaro iqtisodiy sahnada asosiy harakatlanuvchi subyektlar sifatida global firmalar qoladi.

M.YU.CHernavskiyning fikricha, ushbu fenomen uch xil ma`noda tushunilishi mumkin. Birinchidan, kishilar, davlatlar va madaniyatlar o`rtasidagi o`zaro aloqalar hududining kengayib borishi sifatidagi tarixiy jarayon sifatida. Ikkinchidan, dunyoning siyosiy-iqtisodiy va madaniy bir xillikka tomon harakati sifatidagi umumiylik va gomogenizatsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida ro`y beradigan dunyoning universallasuvi sifatida. Uchinchidan, o`zaro iqtisodiy munosabatlar sohasida milliy chegaralarning shaffoflashib borishi sifatida.^{9[148]}

Shuningdek, M.YU.CHernavskiy globalizatsiya hodisasini modernizatsiya mahsuli sifatida qaraydi. Uning fikricha, Sovet Ittifoqining «amerikanizatsiya» loyihasiga qarshi qo`llagan modernizatsiya loyihasi keyinchalik globalizatsiya nomini oldi. Boshqacha aytganda, globalizatsiya sotsialistik modernizatsiya loyihasi inqirozining qonuniy oqibatidir.

^{9[148]} CHernavskiy M.YU. kandidat filosofskix nauk, dotsent kafedri` filosofii Rossiyskogo zaochnogo instituta tekstilnoy i legkoy promi`shlennosti. Modernizatsiya i globalizatsiya.

Yana bir rus olimi Rossiya strategik tadqiqotlar markazi rahbari o`rinbosari, tarix fanlari doktori Mixail Muntyanning fikricha, globalizatsiya hodisasiga ilmiy jihatdan aniq va mazmunli qarash asosan globallashuv jarayonini fan texnika inqilobining informatsion bosqichi va uning dunyo iqtisodiy, moliyaviy, telekommunikatsion, transport tizimlari rivojiga real ta`siri bilan bog`lovchi olimlarning ishlarida uchraydi.

Ular globallashuv tushunchasini jamiyatning informatsion bosqichdagi xalqaro rivojlanishning asosiy yo`nalishi sifatida taqdim etadilar. Ularning fikricha, Internet va butun dunyoni qamrab olgan turli xil transmilliy tashkilotlar, korporatsiyalar va harakatlar globallashuv jarayonining ramziy timsollari hisoblanadi.

Yana bir o`rinda globallashuvning quyidagi ta`rifi keltiriladi: «Globallashuv-mavjud global jarayonlarni boshqarish maqsadida davlatlarning va xalqaro tashkilotlarning keng qamrovli aloqalari va hamkorliklari tizimidir».

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, globallashuv va global rivojlanish tushunchalari bir-biridan farq qiladi, zero global rivojlanish butun dunyo miqyosida sodir bo`layotgan, inson faoliyati natijasida ro`y berayotgan va insoniyat taraqqiyoti uchun tizimli ahamiyatga ega bo`lgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, informatsion, psixologik o`zgarishlar majmuasidir.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, globallashuv jarayoni ko`p qirrali va xilma-xil ta`rifli hodisadir.

Globallashuv erkin xalqaro savdo gimnining «muallifi» hisoblanadi. Globallashgan iqtisod butun dunyoda farovonlik darajasini oshirish, shuningdek, ijtimoiy sohadagi muammolarni likvidatsiya etishda eng samaralidir. Xattoki, atrof-muhitni muhofaza qilish borasida ham erkin savdo tufayli ijobiy natijalarga erishish mumkin, chunki kuchli raqobat bosimi resurslarga ehtiyotkorona munosabatni shakllantiradi va tabiat bilan munosabatda oqilonalikka majbur etadi. Eng asosiysi bu jarayon shaxs rivojlanishiga olib keladi. Sababi texnologiya yangi turlarining kirib kelishi, ishlab chiqarish usul va vositalarining takomillashishi intellektual jihatdan salohiyatli kadrlarga ehtiyojni vujudga keltiradi. Natijada

kishilarda yangiliklarni o`zlashtirish va intellektual salohiyatni oshirishga etarlicha impul`s beriladi. Kuchli raqobat ularni o`z-o`zlarini takomillashtirishga va mavjud sharoitga moslashishga majbur etadi. Nihoyat bu butun jamiyatda intelektning yuksalishiga olib keladi.

Bundan tashqari globallashuvning demokratizatsiya, informatizatsiya kabi jarayonlari jamiyat rivojida alohida ahamiyatga ega. Jumladan, demokratizatsiya jarayonida sotsiumning elementlari ierarxiyasida jiddiy o`zgarishlar ro`y beradi. Ushbu ierarxiya quyidagicha strukturaga ega bo`ladi: shaxs-jamiyat-davlat. Bunda davlat shaxs va jamiyat manfaatlarini ta`minlovchi instrument vazifasini o`taydi. Jahon arenasida o`z nufuziga ega bo`lishni istagan har qanday davlat ushbu ierarxiyaga amal qilishi lozim.

Informatizatsiya jarayoni ham shaxs rivojida muhim ahamiyatga ega. Bunda shaxs o`zining axborotga bo`lgan ehtiyojini etarli darajada qondiradi. SHuningdek u ham informatsiya resursiga ega bo`ladi, ham dunyoqarashini zamonaviy talab darajasida shakllantiradi.

Ammo yuqoridagi ijobiy xususiyatlariga qaramasdan globallashuv hodisasi uchinchi dunyoda negativ qabul qilinadi. Jumladan, AQSH professori (asli afrikalik) Dennis Brutusning fikricha, globalizatsiya «profits before people», ya`ni «foyda insondan muhim» printsipi asosida harakat qilmoqda. Uning bahosiga ko`ra, globalizatsiyaning tarqalishi bilan ijtimoiy hayotda inson qadri yo`qoldi, pul axloq ustidan hukmronlik o`rnatdi^{10[149]}

Professor Mbeki globalizatsiya jarayonini antidemokratiya maqsadidagi biznes deb ataydi. Uning fikricha globalizatsiya kelishi bilan biznesning moliyaviy shaffofligi to`liq yo`qoldi va oylik maoshlar qisqardi. U o`zi bilan g`arb qulchiligining yangi shaklini olib keldi. Bunday qulchilikning xarakterli xususiyati shundaki, unda «xo`jayin» shaxssizlashadi.^{11[150]}

Yana bir antiglobalist, Kairdagi Amerika universiteti professori Arui Mafele globallashuvni «Butun dunyo kapitalistlari birlashing!» shiori ostida ro`y

^{10[149]} V. Kultig`in. Nezapadni`e kontseptsii globalizatsii. <http://www.perspektivy.info/print.php>

^{11[150]} Tam je.

berayotganligini ta`kidlaydi. Uning fikricha, globallashuv tabiiy jarayon emas, balki u siyosiy boshqariladi. Globallashuvning asosiy raqibi- bu milliy oppozitsiyadir.^{12[151]}

Albatta globallashuv jarayonining salbiy oqibatlaridan ko`z yumib bo`lmaydi. Ayniqsa uning madaniy standartizatsiya, informatizatsiya va qadriyat universalizatsiya jarayonlari milliy identifikatsiya krizisini keltirib chiqaradi. Ammo bunday salbiy holatlarni oldini olishning samarali yo`li bu- ushbu jarayonning faqatgina ta`sir obyekti emas, balki subyekti ham bo`lishdir. Bugungi kunda ayrim davlatlarni hisobga olmaganda dunyoning deyarli barcha mamlakatlari globallashuvning obyekti hisoblanadi. Masalan, Yaponiya ushbu jarayonning ham obyekti, ham subyekti. U globallashuvning obyekti sifatida G`arb qadriyatlarini o`zlashtirib, subyekt sifatida ularni adaptatsiyalashgan ko`rinishda Osiyoning boshqa mamlakatlariga taqdim etmoqda.^{13[152]} Globallashuv davr taqazosi, rivojlanishning ayni damdagi tabiiy qonuniyati. Undan voz kechish yoki boshqacha yo`ldan rivojlanish mumkin emas.

Bugungi kunda globallashuv atamasi shunchalik mashhur bo`lib ketganki, uni XXI asr mahsuli desak mubolag`a bo`lmaydi. SHu o`rinda, izohlash uchun xilma-xil yondashuvlar, nazariyalar, paradigmalari ishlab chiqilgan bo`lib, ularning hammasini sharhlab quyidagi xulosaga kelish mumkin: globallashuv halqlar, mamlakatlar transformatsiyasi, insoniyatning bir butunlikka integratsiyasini keltirib chiqaradi. SHu ma`noda, muayyan jamiyat o`zidan etuk deb hisoblagan boshqa jamiyatning mafkura, qarashlar, ilmiy-texnikaviy, madaniy yutuqlarni o`zlashtirishi globallashuv ta`siri ostida bo`ladi. SHu borada, kimdir buni jahonning yangi tarkibi shakllanishida xalqlarning yaqinlashuviga, iqtisodiy farovonlikka ijobiy ta`sir etadi, deb (K.Omae, P.Draker, T.Piters, S.Reysmit, S.Xantington va b.) hisoblasa, boshqalar (Z.Bauman, N.V.Zagladin, F.Fukuyamo, G.P.Martin, X.SHuman, M.G.Delyagin, V.I.Dobren`kov va b.) globallashuv

^{12[151]} Tam je.

^{13[152]} Kortunov S.V.. Globalizatsiya i natsionalnaya identichnost.

milliylikning yo`qolishi, bir mamlakatning boshqa yirik ilmiy salohiyatga ega bo`lgan davlatlarga qaramligini oshiradi deb qaraydilar.

Shu asnodda nafaqat oddiy o`quvchi, balki o`z mustaqil mushohada-mulohazasiga ega bo`lgan odamlarda ham globallashuv jarayoni ta`sirida jahonning yangi tarkibi yoki bo`lmasa millatlarning totuvligini ta`minlovchi madaniyati, ma`naviyati qanday bo`lishi to`g`risida gumon-shubhalar, ikkilanishlar paydo bo`lishi tabiiy.

Bundan tashqari, globallashuv masalasiga oid zamonaviy bahslar ushbu muammoni yanada chigallashtirib yubormoqda hamda yangi muqobil g`oya, nazariyalarning paydo bo`lishiga turtki bermoqda. Jumladan, “Frantsuz olimi Jak Le Dyumgi quyidagi yondashuvlarni ishlab chiqadi:

Liberal yondashuv. Globallashuv faqatgina obyektiv jarayon emas, foydali fenomen sifatida iqtisodiy, ijtimoiy samaradorlikka olib keladi;

Madaniy yondashuv. Milliy madaniyatlar inqirozi tarixiy jamiyatlar to`qnashuvi, “chatishgan madaniyat” ning paydo bo`lishi”^{14[153]}.

Yuqoridagi yondashuvlardan farqli o`laroq Golland tadqiqotchisi YA.N.Piters globallashuvni izohlashda quyidagi paradigmlar tipologiyasini taklif etadi.

“Sivilizatsiyalar to`qnashuvi. Turli madaniyatga mansub jamiyat mamlakatlarning konfrontatsiyasi;

“Makdonal`dlashuv”. Transmilliy kompaniyalar amalga oshirayotgan moderinizatsiya ostida (vesternizatsiya, evropeizatsiya, amerikanizatsiya) madaniyatlari gegemonlashuvi.

“Gibridlashuv”. Halqaro munosabatlar ostida umumiy, aralash madaniyatning paydo bo`lishi”^{15[154]}.

SHunday qilib, globallashuv ko`p qirrali jarayon bo`lganligi uchun uni sharhlashda ancha muammolarga duch kelamiz. Buni bartaraf etish maqsadida

^{14[153]} Bogomolov B.A Globalizatsiya: nekotori`e podxodi` k osmi`sleniyu fenomena. Vestn. MGU Ser. 12. Politicheskie nauki. 2004. №3.

^{15[154]} O`sha joy.

jahonda globallashuv ta`siri ostida bo`layotgan jarayonlarni to`liq va mukammal tahlil etib ko`rishga to`g`ri keladi.

Ta`riflardan birida globallashuv yer kurrasi bo`ylab yoyilayotgan kommunikatsiya va ayirboshlash tarmoqlar orqali va ular tufayli mintaqaviy xo`jaliklar, jamiyatlar va madaniyatlar bir biri bilan yaqinlashib, bir biriga singib ketganligini ifoda etadi, deyiladi. F.Tolipovning “global taraqqiyot deganda biz kishilar hamjamiyatlarining hayotiy faoliyati natijasida jahon miqyosida sodir bo`layotgan va butun insoniyat taraqqiyoti uchun tizimiy ahamiyatga ega siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, psixologik o`zgarishlar majmuini tushunamiz”^{16[131]}, degan ta`rifi globallashuvning asosiy jihatlarini qamrab oladi, deb hisoblaymiz.

Globallashuv alomatlari qadim zamonlardan beri kuzatiladi. Qadimgi va o`rta asrlar imperiyalari tarix qatlarida qolib qetgan bo`lsa-da, o`sha davrlardagi globallashuv tamoniga bo`lgan siljishlar saqlanib qoldi. Bunga bir misol Ipak yo`li bo`lsa, boshqa misol sifatida Chingizxon imperiyasida barpo etgan pochta xizmatini ko`rsatish mumkin. Ammo xususiyl, tor ma`noda globallashuv, deb eng oxirgi davr yuritiladi. Bugun o`zini yorqin namoyon qilayotgan globallashuv bir necha asrlik ildizlariga ega. XV-XVII asrlardagi geografik kashfiyotlar ko`plab mamlakatlar va mintaqalarning xalqaro savdo doirasiga tortilishiga, sanoat revolyusiyasi esa umumiy aloqalarning yanada kuchayuvi, keng qamrab kasb etishiga iqtisodiy zamin yaratgan edi. Keyingi davlarda bunday munosabatlar yanada chuqurlashib bordi. XX asr boshlariga kelib yangi sifatli xarakter kasb etgan va ijtimoiy xayotning barcha sohalarini qamrab olgan mazkur jarayon globallashuv tushunchasi orqali ifodalana boshlandi. Jumladan, globallashtirish jarayonlari antik davrdan buyon yoki boshqa variantlarda, dastlabki jahon bozorlari yoki yaxlit jahon xo`jaligi yuzaga kelgan vaqtlardan e`tiboran rivojlanib kelayotgani to`g`risidagi tasdiqni ham uchratish mumkin. Siyosiy kon'yunktura

^{16[131]} Tolipov F. Strategicheskaya rol Tsentralnoy Azii v globaliziruyushemsya mire // Caucasus and Central Asia in the Globalization Process. International Conference/ 12-13 May, 2003, Baku. C. 169. Ravshanroq bo`lishi uchun iqtisodiy globallashuv jihatlarini sifatida texnikaviy globallashuvni, ijtimoiy globallashuv doirasida huquqiy/axloqiy va diniy va mazkur barcha sohalariga taalluqli informatsion globallashuvni ko`rsatish joiz bo`lur.

mahalliy Markazi direktori V.Fedorov¹⁷ Globallashtirish butun dunyo – tarixiy jarayon sifatida XVIII asr boshlaridan e'tiboran yuzaga kelgan deb hisoblaydi.

Umuman olganda, xalqlar va ularning davlat tuzilmalari o'rtasida har doim ma'lum aloqalar yuz berib kelgan. lekin ayrim olimlarning fikricha, globallashuv buyuk geografik kashfiyotlar natijasida va Yevropa madaniyati ta'sirida xvi asrdan boshlangan. kishilar kemalarda dunyoning ko'p joylariga suzib bora boshlagan. lekin bu jarayon ko'pchilikning hisoblashicha, xx asrda dunyoviy ko'lam kasb etib o'z yakuniga yetgan. Agar uning birinchi davri (xvi–xvii asrlar)da mamlakatlar o'z-o'zicha yetarli holatda bo'lgani uchun ular o'rtasidagi jarayonlar kuchsiz kechgan, xix asrda esa dunyoviy yaxlitlikka erishilmagan bo'lsa-da, davlatlar o'zaro keng aloqalarga kirishganki, bularning natijasi globallashuvni kuchaytirmasligi mumkin emasdi. uchinchi davr – xx asrda yuz bergan tarixiy voqealar 1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy krizisi, ii jahon urushi, davlatlar valuta aloqalaridagi oltin standartining tanazzuli, isroilning qo'shni arab davlatlariga navbatdagi tajovuziga javoban neftga boy arab davlatlarining yoqilg'i narxini oshirgani natijasida 1973–1974-yillardagi inqiroz, sovet davlatining barham topishi, «sotsialistik hamdo'stlik» mamlakatlarida tinch kechib, tuzum tabiatini o'zgartirgan voqealar va boshqalar globallashuv ko'lamini yaqqol ko'rsatdi.

Globalizatsiya 19-asrining 60-yilaridan boshlab yonqin namoyon bo'ldi. Boshqa fikrlarga ko'ra globalizatsiya 19-asrning oxirida boshlanib, o'tgan asrning oxirgi choragida jadallashdi.^{18[132]} Globallashuv transmamlakat korporatsiyalarining tez sur'atlar bilan kengayishi ortidan xo'jaliklarning “o'sish-yo-o'lish” dinamikasini ifoda etuvchi sistemik tendentsiyaning natijasidir, degan fikr bildirilgan.^{19[133]} O'z navbatida bu tendentsiya trasmamlakat korporatsiyalarning jadal o'sib borishi bilan bog'liqdir. Iqtisodiy kontekstda globallashuv tovarlar, sarmoya, xizmatlar va ishchi kuchi oqimini osonlashritish

¹⁷ Русский предприниматель. 2002 г., январь, стр. 28.

^{18[132]} Summary of the Annual Review of Developments in Globalization and Regional Integration in the Countries of the ESCWA Region by the United Nations Economic and Social Commission for Western Asia

^{19[133]} “Globalisation, the reformist Left and the Anti-Globalisation ‘Movement’”, Takis Fotopoulos, democracy & nature: The International Journal of inclusive democracy, Vol.7, No.2, (July 2001)

maqsadida davlatlar chegaralaridagi to`siqlarni bartaraf qilish yoki sezilarli darajada pasaytirishni anglatadi. Tor ma`nodagi globallashuv savdo-sodiq, bevosita chet el investitsiyalari, kapital oqimi, migratsiya orqali mamlakatlar xo`jaligining bir internatsional xo`jalikka intregressiyasini anglatadi. Keng ma`nodagi globallashuvga g`oyalar, tillar va ommabop madaniyatning mamlakatlararo almashinuvi hamroh bo`ladi.

O`zbekiston globallashuv jarayonidan chetda qolmadi. Ipak yo`lining bir necha marshruti hozirgi O`zbekiston eridan o`tgan, Samarqand va Buxoro Ipak yo`lidagi yirik savdo markazlari sifatida jahonga tanildi. Hozirgi O`zbekiston eri xalqaro tijorat yo`llarining chorrahasi sifatida o`z ahamiyatini kech o`rta aslrgacha saqlab keldi. Ushbu globallashuv natijasi o`laroq Markaziy Osiyo erlarida ma`naviy sohada diniy tolerantlik, ilm-fanga charqoqlik vujudga kelgan, islom diniy tafakkuri va grek falsafasi kirib kelgan bo`lsa, xo`jalikda ipakchilik va paxtachilik rivojlandi, muayyan mahsulot ekport qilindi. Salbiy oqibatlar ham yo`q emas edi – “miyalar sizib ketishining” ilk ko`rinishlari, yalpi ichki mahsulotning bir qismi markazga to`lov sifatida olib ketilishi, masalan.

Rossiya istilosi bilan globallashuv jadallalashdi va boshqa yo`nalish oldi. Turkiston oykumenasi deformatsiyaga uchradi. Iqtisodda paxtachilik va ipakchilik ko`lami oshgan, temir yo`llar va shular asosida paxtaga dastlabki ishlov berish, mexanik ishlab chiqarish paydo bo`lgan bo`lsa, turmush tarziga Yevropacha unsurlar kira boshladi va ko`payib bordi. Ma`naviy sohada ta`lim tizimini isloh qilish g`oyalari, yangi usul maktablari, dramaturgiya janri, teatr yuzaga keldi. Siyosiy sohada konstitutsiyaviy monarxiya, imperiya tabaalarining millati, dinidan qat`i nazar tenghuquqligi g`oyalari muhokama qilina boshladi.^{20[134]} Mustaqillik O`zbekiston uchun oykumenani kengaytirib xalqaro munosabatlarning to`laqonli qatnashchisiga aylanishga imkon yaratdi, respublika BMTga, ko`pchilik xalqaro shartnoma, konventsiya, ularga qo`shimcha protokollar va hokazolarga a`zo bo`ldi.

^{20[134]} Bu mavzularda ko`p sonli adabiyot mavjud. Qarang, masalan: Maslakdoshlar./To`plam- T.- 1994; Adeeb Haleed. Jadeedism in Central Asia. Boston, 2000.

Xulosa o`rnida aytish joizki, globallashuv jarayoni zamonaviy fenomen sifatida o`z vazifasini qanday yo`l bilan bo`lsa ham ado etmoqda. Albatta, bunda ba`zi ma`lum va noma`lum (globallashuv bayroqdorlari ham deyish mumkin) kuchlar bu jarayonni sun`iy tezlashtirsalar ham yoki manfaat ko`rsalar ham yuqorida keltirilgandek millatlar ma`naviyati, mentaliteti, o`zgarishi yoki mustahkamlanishi, o`ziga xosligini saqlab qolishi qaysidir ma`noda mamlakatning o`ziga bog`liq bo`lib qoladi.

II bob. Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari.

II 1. Dunyo miqiyosida ro`y berayotgan globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari va uning masalalari.

Hozirgi kunda dunyoda ildam qadamlar bilan o`zgarib borayotgan, tobora insoniyat olamini o`z domiga tortib va ularning hayotiga chuqurroq kirib, milliy madaniyati va ma`naviyatiga ta`sir etayotgan globallashuv jarayoni yuz bermoqda. Bu jarayon natijasida esa, turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar to`qnashuvi sodir bo`lib, bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi oqibatida millatlar ma`naviyatiga tahdidlar solishiga sabab bo`lmoqda. Bu jarayonni ijobiy va salbiy mohiyatini terang anglagan Prezidentimiz Islom Karimov muallifligi asosida joriy yilda “Ma`naviyat” nashriyoti tomonidan chop etilgan “Yuksak ma`naviyat-engilmas kuch” nomli asarlarining uchinchi bobida “globallashuv jarayonlari va ma`naviy tahdidlar” misolida alohida to`xtalib o`tganlar. Prezidentimiz ushbu asarda globallashuv fenomeni haqida quyidagicha yondashib, “bu jarayon mutlaqo yangicha ma`no-mazmundagi xo`jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqiyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda”^{21[16]} kabi o`z fikrlarni bildirib, masalani mohiyatini to`laroq ochib berganlar. Keling, shu o`rinda globallashuv so`zi o`zi nima ekanligi, to`g`rirog`i tub lug`aviy ma`nosini aniqlab olsak, “Global” atamasi frantsuz tilida global-“umumiy”, lotin tilida globus-“shar” degan ma`nolarni anglatadi. Ya`ni,

^{21[16]} Karimov I. YUksak ma`naviyat-engilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008 yil. 111- bet.

globallashuv “hammasini to`liq qamrab oluvchi” atama sifatida sharhlanishi mumkin. Global muammolarning paydo bo`lishi globallashuv kontseptsiyalarining shakllanishiga olib keldi. Hatto bu jarayon natijasida umuminsoniy muammolarni o`rgatuvchi fan-globallashuv (global studies) vujudga keldi. Bu fan markazida ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy muammolar turadi.

“Globallashuv jarayonining yana bir o`ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta`sir o`tkazishning nihoyatda o`tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog`lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar”^{22[17]}. SHunday bo`lsa ham, globallashuv jarayoni ta`siri ostida bu immunitet yuzaga chiqarishda har bir davlatning milliy g`oya va mafkurasini alohida ahamiyatga ega. Albatta, bunda, mafkura negizi vatanga muhabbat, sadoqat, ishonch tuyg`ulariga yo`g`rilgan bo`lib, ajdodlarning asriy orzusi bo`lgan tinchlik va osoyishtalik, uni asrab-avaylash, mustahkamlash hamda asrlar osha davom etib kelayotgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an`analarimizni kelajak avlodlarigacha etib borishini ta`minlash, maqsadiga qurilgan bo`lgandagina, mafkuraviy immunitet yuzaga chiqadi.

So`nggi paytlarda, ayrim ko`zga ko`ringan g`arb mamlakatlari o`z maqsadlariga erishish yo`lida halqaro huquq me`yorlarini buzib, davlat va xalqlarning suverenitetiga qarshi chiqib, jahonda o`z tartiblarini o`rnatishni faollashtirib bormoqdalar. Bunga Iroq va Afg`onistonda olib borilgan urushlar, Qirg`iziston va O`zbekistondagi inqilobiy harakatlar yoki bo`lmasa yaqin kunlarda sodir bo`lgan Gruziya va Janubiy Asetiya o`rtasidagi ixtiloflar yaqqol misol bo`la oladi. G`arbning bu agressiv siyosatiga hech qanday halqaro tashkilot yoki davlat to`squinlik qila olmadi.

Bundan tashqari, madaniyat sohasida ular o`z rivojlangan OAV lari orqali qolgan hududlarni o`z qarash, yondashuvlariga moslashtirib, qadriyatlarini singdirib bormoqdalar. Afsuski, bunday ta`sirlarga to`siq qo`yishning iloji yo`q. Sababi, bugungi kunda XXI asr buyuk texnologiyalar asri deb ham yuritilib,

^{22[17]} O`sha joyda, 113- bet.

buning asosida hatto bir kichkinagina axborotning tarqalishi ham ko`zga ko`rinmas darajada, tez sur`atlarda amalga oshirilmoqda. Bunda, “o`rgimchak to`ri” deb nomlanmish internetning xizmatlari ko`magi asosida dunyoning bir burchagida sodir bo`lgan biror bir voqea-hodisa tafsiloti dunyoning ikkinchi burchagiga yashin tezligidek, etib bormoqda. SHu bilan birga, kishilarning bundan boxabar va bexabar bo`lishi yoki axborotning biror “elementini” o`zlashtirishi salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Ammo bu erda, achinarli tomoni shundaki, axborot aniq va noaniq bo`lishi kishilarni chalg`itib qo`yayotir. SHu boisdan, hech ikkilanmay aytish mumkinki, axborot psixologik xavfsizlik tahdidining namoyon bo`lishi va uning insoniyat ongiga keskin ta`sir qilishi, mana shunday holatlarning negizida vujudga kelmoqda desak, mubolag`a bo`lmaydi. Bundan tashqari, SHarq uchun absurd bo`lib tuyulgan sifatlar ham kirib keldi. Bu esa, o`z-o`zidan yoshlar ongini zaharlanishi, o`z hayotiy-milliy qadriyat va urf-odatlariga, bundan ham xavfli ma`naviyatiga xilof ravishda, chet el madaniyatini “ommaviy madaniyat” sifatida o`zlashtirayotganligi, yoshlarni g`arb foydasiga fikr, xulosa chiqarishlariga moyil qilib qo`ymoqda. SHuningdek, milliy tillar ayrim xorijiy tillar so`zlari, birikmalari bilan ifloslanmoqda. Insonlar bir xil ovqatlarni iste`mol qiladilar, bir xil kiyinadilar, bir xil fil`mlarni ko`radilar, ma`lumotlarni OAV dan oladilar. Bu holat umumiylikni yoki g`arblashuvni yuzaga keltirib, milliylikni unutilishiga, izdan chiqishiga, eng qo`rqinchlisi yo`qolishiga sabab bo`lmoqda. Ammo mana shunday vaziyatda insonlarning globallashuv jarayoni ta`sirida ma`naviy va mafkuraviy tahdidlarga mustahkam iroda bilan dosh berish va kurashish uchun ularda yagona imkoniyat mavjud bo`lib, bu mafkuraviy immunitet hisoblanadi. Bu o`rinda, mafkuraviy ta`sir haqida gap ketar ekan, buni biz birgina **Prezidentimiz ta`biri bilan izohlashimiz mumkin, “Globallashuv jarayonining yana bir o`ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta`sir o`tkazishning nihoyatda o`tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog`lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar”**^{23[155]}. Shunday bo`lsa ham, globallashuv jarayoni

^{23[155]} Islom Karimov. YUksak ma`naviyat-engilmas kuch. Toshkent “Ma`naviyat”, 2008 yil. 113 bet.

ta`siri ostida bu immuni yuzaga chiqarishda har bir davlatning milliy g`oya va mafkurasi alohida ahamiyatga ega. Albatta, bunda, mafkura negizi vatanga muhabbat, sadoqat, ishonch tuyg`ulariga yo`g`rilgan bo`lib, ajdodlarning asriy orzusi bo`lgan tinchlik va osoyishtalik, uni asrab-avaylash, mustahkamlash hamda asrlar osha davom etib kelayotgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an`analarimizni kelajak avlodlarigacha etib borishini ta`minlash, maqsadiga qurilgan bo`lgandagina, mafkuraviy immunitet yuzaga chiqadi.

Yuqorida keltirilgan mantiqiy xulosalardan so`ng, dono o`zbek halqimiz ta`biri bilan aytganda, guruch kurmaksiz bo`lmaydi albatta. Globallashuv jarayoni ham xuddi shunday, ya`ni, uning kamchilik tomoni bo`lgani kabi yutuq tomonlari bo`lishi tabiiydir.

Nega deganda, globallashuv jarayoni ta`siri mamlakatlar bir qancha muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Ya`ni, ma`lum maqsadlar yo`lida, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamkorlik yo`lini tutudilar. Bu esa, davlatlar, mintaqalar o`rtasida integratsiya jarayonlarini kuchayishi, halqaro munosabatlarni shakllanishi, ekologiyani buzilishi natijasida yuzaga kelgan tabiiy ofatlar mahsuli talofatlar vaqtida o`zaro ijtimoiy yordamlarni ko`rsatilishi yoki jahonshumul muammo sifatida qaralishi, ilm-fan yutuqlarini tezlik bilan dunyoning har bir eriga etib borish va rivojlanishi, xavfsizliklarga birgalikda kurash olib borilishiga sabab bo`lmoqda.

Bundan qizig`i shundaki, globallashuv jarayoni dunyoning har soniyada sergak turishini ta`minlaydi. CHunki, bugungi kunda ogohlik davr talabi hisoblanadi. Biror hududda sodir bo`lgan voqea va hodisa, yuzaga kelgan muammo bugun kelib bizda ham namoyon bo`lishi muqarrardir.

Globallashuvning ijobiy tomonlari:

- Jahondagi xalqlarning tinchlik uchun kurashi;
- Turli hil mamlakatlarning iqtisod-siyosat, fan-texnika, madaniyat, ta`lim va boshqa sohalardagi xamkorlik;
- Qurollanish poygasiga qarshi kurash;
- Terrorizm va giyoxvandlikka qarshi kurash;

- Yuqumli kasalliklar epidemiyalariga qarshi kurash;
- Tabiiy ofatlar ya'ni zil-zila, suv toshqinlari, yong'inlar, vulqon otilishi, sunami va boshqalardan zarar ko'rgan aholiga boshqa mamlakatlarning beg'araz yordami.

Globallashuvning salbiy tomonlari:

- Ekologik muammolar ya'ni ozon teshiklari er xaroratining oshib borishi, o'rmonlarining kamayishi, ya'ni cho'l va saxrolarning paydo bo'lishi, orol dengizi fojiasi va boshqalar;
- Turli mamlakatlarga kasallik epidemiyalarini tarqalishi, ayniqsa OITS;
- Terrorizm va giyoxvandlikning oshishi;
- Ommaviy ma'naviyat tahdidi.
- Qurol va giyoxvand moddalar savdosining kengayishi va boshqalar.

Inson va insoniyat hayotining har bir davri, yili, kuni, daqiqalari o'z qadr qimmatini, ma'nosi va murakkab muammolariga ega. Lekin bugungi kunda insoniyat boshdan kechirayotgan davr mutloq o'zgacha, mislsiz murakkab va ziddiyatli. Chunki, ayni shu davrga kelib insoniyat hayotida muayyan bir davr o'z xotimasiga etib, yangi davr boshlanayotganini ko'rsatadigan misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, butun insoniyat taqdiriga bevosita ta'sir etuvchi murakkab va keskin muammolarni echish zarurati vujudga keloqda. Bu davr muammolarining murakkab o'ziga xosligi shundaki, unda nafaqat ayrim mamlakatlar, davlatlar, mintaqalarning ayrim siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va b. muammolari va xatto nafaqat G'arb yoki Sharq sivilizatsiyalariga oid umumiy muammolar, balki butun insoniyatga va uning hayotining barcha tomonlariga oid murakkab va umumbashariy muammolar keskin ko'ndalang bo'lmoqda. Bugungi kunda butun insoniyat hayoti va mamoti masalasini qamrab olgan global muammolar misli ko'rilmagan dolzarbligi va keskinligi bilan maydonga chiqarkan, bu vaziyat avvalo G'arb va Sharq tsivilizatsiyalari ma'anaviy qadriyatlarini davr tarozusiga qo'yilmoqda.

Masalaning behad keskinligi va dolzarbligi atrof tabiatda sordir bo'layotgan inqirozli ahvolda (katastrofalarda) ham, siyosiy alg'ov-dalg'ovlarda

ham, ijtimoiy va iqtisodiy krizis vaziyatlarida ham, kichik bir oilaning bola tarbiyasi yoki sog`liq bilan bog`liq muammolarida ham har qadamda ochiq-oydin namoyon bo`lmoqda. Bunday sharoitda harqanday inson oxirzamon haqida, o`z hayotining ma`no va maqsadi haqida chuqur o`yga tolishi tabiiy. Bunday sharoitda, kema xalokatga uchrayotgan xolatida bo`lgani kabi ko`pchilik taxlikada, o`zini har yoqqa urmoqda. Kimdir o`z vaandoshlarni qullikka sotib bo`lsa ham, jon jahdi bilan boylikka intiladi. Zero nazarida uni faqat boylik qutqaradi. Kimdir zo`r berib hukmronlik martabalari bo`ylab tinimsiz yuqoriga ko`tarilish yo`lini izlaydi. Go`yo yuqori martabaning mas`uliyati kamday. Kimdir maishatga intiladi. Kimdir bu sharoitdan qutulish yo`lini topa olmay, tushkunlikka tushadi, xastalanadi. Lekin mamlakat hayoti uchun jiddiy mas`uliyat hissini tuygan davlat rahbariyatining, chin ma`nodagi ziyolilarning, avvalo, faylasufning boshqalar tutgan yo`ldan borishga haqi yo`q. Zero , faylasuf chindan ham faylasuflikka da`vo qilsa, u yashash hikmatini, ya`ni to`g`ri yo`lni bilgan va boshqalarga uni ko`rsata oladigan odam hisoblanadi.

Globalashuv hodisasiga kim qanday (ijobiy yoki salbiy) munosabatda bo`lishidan qat`iy nazar bu jarayon hozirgi davrda avj olmoqda va ijtimoiy munosabatlarda o`z aksini topmoqda. SHunga qaramasdan har qanday ongli inson globalashuvning ma`no va mohiyati nimada, globalashuv inson va insoniyatga nima beradi, bu uning kelajak taqdiriga qanday ta`sir etadi, globalashuvning mevasi bo`lgan umumbashariy tartibsizlanish (xaos) sharoitida inson, jamiyat, davlatlar to`g`ri yo`lni qanday topishi mumkin kabi savollarga tinimsiz javob izlashiga to`g`ri kelmoqda. CHunki , bu jarayon ham yaratish, ham vayronkorlik keltiradigan ziddiyatli jarayon ekani endilikda yuzaki qarashdayoq ko`rinib turipti. Agar bu globalashuv dunyoda har biri o`z qonuniy "men"iga ega bo`lgan tengxuquqli millatlarlarning hamjihat Yagona Umumiy Fikri , Yagona Umumiy Ezgu tuyg`ulari, Yagona Umumiy Irodasining shaklanishi yo`lidan ketayotgan bo`lsa, u holda insoniyat, qanchalar qiyin bo`lsa hamki, unga shaksiz shubhasiz va tinimsiz intilishi joiz. Zero bu Yagona ilohiy hikmatning idealidir. Lekin, jahon ijtimoiy sahnasida namoyon bo`layotgan hozirgi hodisalar - rivojlangan mamlakatlar olib

borayotgan globallashuv siyosatining rivojlanayotgan mamlakatlarga etkazayotgan turli zararlari, ularning ikkiyuzlamachiligi, xususan, yordam berish bahonasida ularning tovar va resurs bozorlarini ochishga majbur qilib, o'z bozorlarini esa yopiq saqlashlari, umuman, jahon savdo tizimidagi barcha adolatsizliklar globallashuv emas, balki buning aksi - tor manfaatparastlardan tashkil topgan egoelitar guruhning butun dunyo boyligiga ega bo'lishga intilishi yo'lida dunyo xalqini eng boylar va eng qashshoqlarga ajralib ketishiga, qashshoqlarga nisbatan "oltin milliard" genotsid siyosatining olib borilishida, milliy o'zlik o'rniga xalqaro ziddiyatlar va terrorchilik olovi yondirilayotganida va shu kabi ko'plab hollarda yuz ochayotgan o'ta salbiy jarayon ekanini ko'rsatmoqda.

II 2. Globallashuvning obyektiv maqsadi va vazifasi.

Ko'pchilik mutafakkirlar, xususan, rus faylasuflari va siyosatshunoslari^{24[28]} hozirgi davrning aksariyat global muammolari, shu jumladan sotsialistik tizimning mag'lubiyati, ya'ni sobiq Ittifoqning parchalanishi ham G'arb peshvolari o'z tizimini krizisidan chiqarish maqsadida tanlagan yo'lning natijasi ekani haqida, bizningcha, to'g'ri fikrlarni oldinga surdilar. Masalan, A.Kuz'mich o'zining maqolasida "bizdagi qayta qurish – jahondagi qayta qurishning bir qismi. Xomashyo va energiya tanqisligi bozir iqtisodiyotiga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlarga qanday xavf-xatarlar olib kelishi mumkinligini ko'rstatib bergan 1973 yil krizisi qayta qurishning birinchi bosqichi edi" deb yozgan edi.^{25[29]} F.Fukuyamaning shu muammoga maxsus bag'ishlab yozgan kitobida bu fikr yaxshi ochib berilgan.^{26[30]} Lekin, biz bu erda sotsialistik tizimning mag'lubiyatga uchrashida faqat shu tashqi, G'arb ta'sirigina emas, balki uning o'z ichki krizisi ham katta rol o'ynaganini hisobga olish joiz deb o'ylaymiz. Ammo bu masala maxsus ishlarda yoritilgani, shuningdek yanada maxsus va chuqur yoritilishi

^{24[28]} Masalan, qarang: Sergey Batchikov. Globalizatsiya: upravlyaemqy xaos. //Agentstvo politicheskix novostey. 7 aprel. 2009 y. <http://www.apn.ru/publications/article19369.htm>; Kuzmich A. Rossiya i ri`nok (V svete sovetskogo i mejdunarodnogo prava). // Voskpesene, 1990, N 4, shuningdek, A.Kuzmich. Zagovop mipovogo pravitelstva (Rossiya i "zolotoy milliard"); Leskov L.V. Filosofiya nestabilnosti. Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 7. Filosofiya. №3,2001.Sergey Kara-Murza Kontseptsiya "zolotogo milliarda" i Noviy mirovoy poryadok.// http://www.philos.msu.ru/vestnik/philos/art/2001/leskov/_philos.htm va boshqalar.

^{25[29]} Kuzmich A. Rossiya i rinok (V svete sovetskogo i mejdunarodnogo prava). // Voskpesene, 1990, N 4. SHuningdek, qarang: A.Kuzmich. Zagovop mipovogo pravitelstva (Rossiya i "zolotoy milliard"). M.:1992.

^{26[30]} Fukuyama F. Konets istorii i posledniy chelovek. Perevod s angliyskogo M.B. Levina. Publikuetsya po izdaniyu OOO «Izdatelstvo AST», 2004.

taqozo etiladigan masala bo'lgani uchun biz unga boshqa to'xtalmaymiz. Ammo SSSRning parchalanishi olamshumul krizisni boshdan kechirib turgan G'arb tizimining manfaatlariga muvofiq kelgani shubhasiz. Zero, ayni shu davrda G'arb futurologlari u erda tsivilizatsiya katta xavf ostida ekani haqidagi xulosalarga kelgan edilar. Masalan, postindustrializmga bag'ishlab yozilgan kitoblardan birining muallifi, fransuz sotsiologi Alen Turen "Xavf mavjudligi shubhasiz. To'kin-sochin yashashga odatlanib qolgan bizning jamiyatimiz o'zligini saqlab qolish qayg'usida xuddi SHarqiy Rim imperiyasida bo'lgani kabi tobora inqiroz sari cho'kib borayotgani ko'rinib turipti,"^{27[31]} - deb yozgan edi.

Mutaxassis olimlarning ko'rsatishlaricha, ayni shu munosabat bilan qirq yilcha avval G'arb tanlagan bu yo'l ilgarigi "yumshoq" keynscha sotsial kapitalizmni qayta qurish va uning asosiga yangi fundamentalistik neoliberalizm^{28[32]} mafkurani qo'yish strategiyasi ishlab chiqilgan.^{29[33]} Bu mafkura "manba'ga qaytish" deb talqin etilgan va D.Xarvining "Neoliberalizmning qisqacha tarixi" nomli kitobida yoritilgan. Ijtimoiy ong uni qabul qila olmagan edi. Zero unda avvalo ilgarigi klassik liberalizm pozitsiyasiga ham, yangi Reformatsiya g'oyalariga ham, dastlabki xristianlik g'oyalariga ham zid keladigan - universal gumanistik ideallardan voz kechishdan tortib to yangi budparastlikka qadar olib keladigan fundamentalistik kontseptsiya o'z ifodasini topgan edi.^{30[34]} Ayni shu jarayonni nazarda tutarkan, Amerikaning taniqli faylasufi E.Toffler o'zining "Hokimiyatning siljishi" (1990) nomli kitobida "Er qimirlashidan oldin uning tektonik qatlamlarida siljish bo'lganiday, jahon tarixida juda noyob hodisalardan biri sodir bo'lmoqda - hukmronlikning o'z mohiyati o'zgarmoqda"^{31[35]} deb yozgan edi.

^{27[31]} Turen A. Ot obmena k kommunikatsii: rojdenie programmirovannogo obshestva. // Novaya texnokraticeskaya volna na Zapade.- M.: Progress. 1986.

^{28[32]} Neoliberalizm - nem. tilida Neoliberalismus. G'arb iqtisodiyot fanida liberalizmning o'rniga kelgan yo'nalish. U iqtisodiy jarayonlarda erkin raqobatni davlat nazorati bilan qo'shib - "raqobat mumkin qadar, rejalashtirish zaruriyat qadar" printsiptiga ko'ra amalga oshirilishi kerakligini asoslovchi tamoyil sifatida ta'riflanadi.

^{29[33]} Globalizatsiya - upravlyaemi'y kaos / Sergey Batchikov // Ekonomicheskie strategii. - 2008. - N 4. - S.30-36.

^{30[34]} Belyaev M.I. Kontseptsiya russogo natsionalnoo gosudarstva. - M.,2006

^{31[35]} Toffler, Elvin. Tretya volna. -M.: AST, 2004 — 784 c.

Kelgusi jarayonlar bu siljishning mohiyatini yanada aniqroq ko`rsatmoqda. AQSH rahbarligi^{32[36]} ostida amalga oshirilayotgan globallashtirish jahon iqtisodiy tizimini, xalqaro xuquqni, madaniyatni va millat va elatlar statusini tubdan o`zgartirish orqali taraqqiyot paradigmasini o`zgartirishga, dunyoda shu yangi mafkuraga muvofiq yangi tartib o`rnatishga urinishning natijasidir.^{33[37]} U tez orada hammaga taalluqli muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Chunki, endilikda barcha madaniyatlar o`zligini saqlash uchun modernlashishga, ya`ni modernlashgan G`arb institutlari va texnologiyalarini o`z hayotlariga joriy etishga majbur bo`lgan edilar.

G`arb mafkurachilari globallashtirish barcha mamlakat va xalqlarni jipslashtiradigan progressiv jarayon ekani, agar rivojlanayotgan mamlakatlar taraqqiy etishni, kambag`allikdan qutulishni istasalar ularning rejalariga amal qilishlari kerakligi, buning uchun hech qanday davlatlar aralashmaydigan erkin umumiy bozorlar tashkil etilishi ko`p ijobiy oqibatlariga olib kelishi haqidagi fikrlarni oldinga suradilar.

Lekin bunday bozorlar allaqachon shakllanib bo`lgan va ularni tovar qiymati o`rniga uning ekvivalenti amal qiladigan deyarli yagona pul tizimi **boshqara boshlagan** edi. Boshqa tomondan qaraganda, chindan ham bu bozorlar ko`pchilik mamlakatlarning jadal iqtisodiy rivojlanishiga yordam berdi ham. Lekin, xalqaro savdo-sotiq faqatgina o`z iqtisodiy taraqqiyotiga foyda keltiradigan mamlakatlar eksportiga yordam berishini va bu endilikda ekologik hamda resurslar krizisi sharoitida kechayotganini hisobga olish zarur. SHuning uchun bunday bozorning yaratilishi istalgan yoqimsiz mamlakatni bir zumda bankrot qila oladi.^{34[38]}

Xatto, ba`zi mutafakkirlarning fikrlariga ko`ra, global hokimiyat (davlat) shakllangan bo`lmasa hamki, butun dunyoni boshqarayotgan global boshqaruv tizimi shakllanib bo`lgan va u faoliyat bajarmoqda. Bu tizim asosida kam sonli

^{32[36]}Zbigneu Bjezinskiy. Velikaya shaxmatnaya doska (Gospodstvo Ameriki i ego geostrategicheskie imperativi). Perevod O. YU. Uralskoy. - M.: Mejdunar. otnosheniya, 1998.

^{33[37]}Batchikov S. Globalizatsiya: upravlyaemi`y kaos. Agentstvo politich.novostey <http://www.apn.ru/publications/article19369.htm> 7 aprel. 2009.

^{34[38]}Qarang: Sergey Batchikov. Globalizatsiya: upravlyaemi`y kaos. Agentstvo politich. novostey <http://www.apn.ru/publications/article19369.htm> 7 aprel. 2009.

umumjahon institutlari – Jahon Valyuta Banki, Jahon Banki, Butun jahon savdo tizimi hamda butun dunyo muammolarini echayotgan bir xovuch egoelita yotadi, taqdiri ular tomonidan hal etiladigan juda katta ko`pchilikning esa bu erda ovozi o`tmaydi. Bu globallashtirish siyosatining ko`pchilikdan iborat kishilar, tashkilotlar va mamlakatlarni shu ozchilikning qo`g`irchog`iga aylantirish quroli bo`lib xizmat qilayotganini ko`rsatadi. Albatta, bular haqida odatda rasman gapirmaydilar, aksincha, “bizning maqsadimiz - kambag`allikni umuman yo`q qilish” degan gaplar aytiladi, aslida esa “hamma ekkanini o`radi”, “bo`lib tashla va hukmronlik qil” shiorlari ostida amal qilinadi. Zero hozirgi davr voqealar rivoji va mantiqi ayni shunday xulosalarga olib keladi.

Chindan ham neoliberalistik fundamentalizm siyosati iqtisodiy globallashtirish orqali jahon iqtisodiy tizimini, xalqaro huquq tartibotini hamda millat va xalqlarning madaniyati va statusini o`zgartirish yo`li bilan butun insoniyatni ikki katta irqqa – o`ta boylar va o`ta kambag`allar irqiga ajralib ketishiga olib kelmoqda. Tabiiyki, buning oqibatida hech bir millat, mamlakat, xalq o`zligini saqlab qola olmaydigan yangi tartiblashuv vujudga kelmoqda.

Yangi tartiblashuv tufayli transnatsional korporatsiyalarning (TNK) jahon iqtisodiy tizimi xo`jayinlari bo`lib olganlari ham shu xulosani dalillashga xizmat qiladi. Ma`lumki, TNK jahondagi ishlab chiqarish fondlarining asosiy qismini va moliya oqimini, shuningdek, amalda butun yuqori texnologiyalar potentsialini o`z nazoratlari ostiga olganlar. Ayni shu sharoitda insoniyat intellektual va tabiiy resurslarini “so`rib oladigan nasos” ishga tushirilgan, endilikda bu resurslar ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan mamlakatlarga osongina oqib o`taveradi. Natijada boylarning yanada boyishi, kambag`allarning esa yanada qashshoqlashishi kuzatiladi. TNK esa o`z iqtisodiy manfaatlarini cheklashni aslo istamaydilar.^{35[39]}

Ayni shu jarayonlar, bizningcha, hozirgi **iqtisodiy**, ayniqsa **moliyaviy (finans) krizislarda** va ular bilan uzviy bo`lgan turli siyosiy kuchlar orasida nizolarning keskinlashuvida, ayrim xalqlar o`rtasidagi qon to`kilishlarda o`z

^{35[39]} Leskov L.V. Vestnik MGU. Seriya 7.Filosofiya. №3, 2001.42-b.

ifodasini topayotgan **siyosiy krizislarda ham** namoyon bo`lmoqda. Xatto keyingilarining keskinligi ekologik krizisnikidan kam bo`lmayapti. G`arb olimlari mazkur holatni ayrim davlatlar, ularning siyosiy rahbarlari, yoki diplomatlarning xatolari deb ko`rsatmoqdalar. Lekin bugungi kunda ko`pchilik olimlar, siyosatchilar, diplomatlar, tadbirkor-biznesmenlar va h.k larning butun e`tibori masalaning tub mohiyatiga emas, uning tashqi shakliga qaratilgan. Ular mazkur xaosdan (tartibsizlikdan, sirli qorong`ulik qa`ridan) qanday tartiblanish kelib chiqishini anglashga harakat qilmoqdalar. Vaholanki, poydevoriga yuksak ma`naviyat qo`yilmagan tartiblanishdan ijobiy natija chiqmasligi aniqroq. Shunday vaziyatda 2008 yilda jahon miqyosida boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning O`zbekistonga ta`sirini bartaraf etish yo`llari va choralari bo`yicha o`z vaqtida ishlab chiqilgan dasturning ahamiyati kattaligiga alohida e`tibor berish^{36[40]} va ayni paytda siyosiy xushyorlikni ham esdan chiqarmaslik joiz.

Zero, G`arb tsivilizatsiyasi peshvolarining, ayniqsa AQSHning o`z krizislaridan chiqish uchun tanlagan yo`li nafaqat ijtimoiy hayotning byurokratlashtirilgani, politsiyalashtirilgani, jahon bozorining o`zlariga bo`ysundirilgani, globallashuvni o`zlaridan boshqa jamiyatlarni iqtisodiy va ma`naviy zaiflashtirish quroliga aylantirilgani bilan, balki jahon miqyosida buzg`unchi g`oyalarni oshkora tarqatilgani, va, ayniqsa, halqaro terrorchilik urug`ini sochilgani bilan ham ayanchlidir. G`arbning Derrida, Bodriyar, Jijek, Bak-Mors, Groys kabi taniqli mutafakkirlari xulosalariga ko`ra globallashayotgan dunyo terrorizmdan mustaqil emas, aksincha, terrorchilik aynan uning maxsulidir. Endilikda xalqaro terrorchilik hozirgi davr “ilg`or” insoniyati **ma`naviy qiyofasini** boricha, oshkor ko`rsatmoqda. “Terrorchilik ham ekzotik hodisa bo`lmay qoldi, - deb yozadi bu haqida Subbotin Aleksandr Alekseevich va Subbotin Aleksey Savel`evich, - u ijtimoiy ongning hamisha bezovtalikda yashash muhitga

^{36[40]} Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. T.-O`zbekiston – 2009.

aylandi.”^{37[41]} Bodriyarning ta`kidlashicha esa, AQSH ko`pdan buyon “butun dunyoga terrorcha tasavvurlarni singdirib kelmoqda”.

Shularni nazarda tutarkan, “Mohiyatan terrorcha tizim bo`lgani uchun o`rnatilayotgan bu yangi tartibot uzoq vaqtdan buyon muvaffaqiyat bilan zo`ravonlikni dunyoga eksport qilish bilan shug`ullanib keldi, -“^{38[42]} deb yozadi rus faylasufi M.Riklin. - 11 sentyabr` veqeasi esa globallashayotgan dunyoda bu siyosat bumerang qonuniga ko`ra o`z xo`jayiniga, ya`ni AQSHning o`ziga qarshi ham ishlashi mumkinligini ko`rsatib berdi.^{39[43]} Rus siyosatshunosi Sergey Batchikov esa “Yangi terrorcha tartibotga qarshi qaratilgan bu terrorni globallashuv tufayli repressiya qilingan va kamsitilganlar nafratining ifodasi,”^{40[44]} deb xarakterladi. Yuqoridagilar globallashuv siyosati millatlararo, mamlakatlararo, xalqlararo ziddiyatlarni keskinlashtirish yo`li ekanini ko`rsatadi.

Bu esa g`arb, xususan, AQSH rahbarligi ostida amalga oshayotgan globallashuv xaosni vujudga keltirsa hamki, ammo uni o`zi istagan tartibga solib bera oladigan attraktorlarni yaratish qo`lidan kelmasligini ko`rsatib berdi. SHuning uchun bu tizim, J.-P.Kantenning^{41[45]} to`g`ri ta`kidlashicha, sodir bo`layotgan hodisalarga to`g`ri diagnoz qo`yishga qodir emas. Vaholanki bu, ko`pchilik faylasuflar va siyosatshunoslar to`g`ri ko`rsatayotganlaridek, butun dunyoda G`arbni qanoatlantiradigan yangi tartibotni o`rnatishdangina iborat bo`lgan oddiy bir strategiyaning amalga oshirilishi ham emas, balki butun G`arb tsivilizatsiyasi endi misli ko`rilmagan axloqiy inqirozga ham uchraganining ifodalovchi jarayonning ifodasi hamdir. Zero, G`arb peshvolari va mafkurachilari o`z tsivilizatsiyalariga tegishli evolyutsion ziddiyatlarini qisman bo`lsa ham bartaraf etish va o`z tuzumlarining umrini uzaytirish maqsadida “**oltin milliard**” deb nomlangan fashistona dasturni^{42[46]} ham ishlab chiqqani ham ma`lum bo`ldi. Bu dastur asosiga demografik krizis muammosi qo`yilgan bo`lib, unda faqat shu “oltin

^{37[41]} Subbotin Aleksandr Alekseevich, Subbotin Aleksey Savelevich. Sleduet li dojidatsya kontsa istorii? Kaliningrad. 2007.// <http://spkurdyumov.narod.ru/Philos.htm> Mail to: succeder@list.ru

^{38[42]} Ri`klin M. Dekonstruksiya i destruksiya. Besedi` s filosofami. M.: Logos. 2002.

^{40[44]} <http://www.apn.ru/publications/article19369.htm> 7 aprel. 2009.

^{41[45]} Kanten J.-P. Mutatsiya-2000. // Novaya texnokraticeskaya volna na Zapade. M.: Progress. 1986.

^{42[46]} Kuzmich.A. Rossiya i pi`nok (V svete sovetского i mejdunapodnogo ppava). // Voskpesene, 1990, N 4, a takje v knige A.Kuzmich. Zagovop mipovogo ppavitelstva (Rossiya i "zoltoy milliard"). M. 2000.

milliard”ga kiradigan tanlangan, sara odamlarnigina saqlab qolishga harakat qilish, boshqalarning esa “biologik klon”larga aylanishi, yoki o`z-o`zidan yo ataylab qirilishi nazarda tutiladi.^{43[47]}

Albatta “oltin milliard” degan tushuncha hech qaysi rasmiy xujjatlarda uchramaydi, u bir majoziy tushuncha xolos. Lekin, hozirgi davr ko`pchilik rus olim, siyosatchi va mutafakkirlari, masalan S.G.Kara-Murza, M.I.Belyaev, Sergey Batchikov, P.Xomyakov va boshqa ko`pchilikning mutaxassis olimlar, faylasuf va siyosatchilar fikrlariga ko`ra bu tushunchaning ishlatilishida asos yo`q emas. Masalan, turli ijtimoiy tizimlar tarixini maxsus o`rganish bo`yicha ixtisoslashgan S.G.Kara-Murzaning tushuntirishicha, keyingi vaqtlarda bu tushunchaning juda keng tarqalayotgani va u Yevropa hamda dunyoning boshqa rivojlanayotgan “birinchi mamlakatlari”ning “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot” tashkilotiga kirgan 24 mamlakat xalqi nazarda tutilayotgani hisobga olinsa, shunday kontseptsiya mavjudligi haqidagi fikrlarda asos mavjudligini inkor etib bo`lmaydi. “Ushbu kontseptsiyani qabul qilish yo qilmaslik axloloqiy va xatto diniy nuqtai nazarga bog`liq, - deydi U. – Lekin bu g`oya xristianlikka (shu jumladan, islomga va ayniqsa buddizmga) mutlaqo ziddir.”^{44[48]} Bir so`z bilan aytganda, XXI asr bo`sag`asida G`arbda radikal mal`tushtilik kontseptsiyasi qayta tug`ildi.

Rossiya siyosatchilaridan va ziyolilaridan bir qismi 90 yillarda yangi liberalizm va Yevropamarkazchilik mafkurasi ta`sirida ushbu utopiyani qabul qilgan va uning targ`ibotchilariga ham aylangan edi.”^{45[49]} Rossiya siyosiy agentligi yangiliklarida o`z izlanish natijalarini e`lon qilgan S.Batchikov ham “90 yillarda neoliberal globallashtirish tashviqotiga berilgan rus siyosatchilar va ziyolilarining bir qismi etakchi G`arb sotsiologlarining bu boradagi faktlarni aytmay kelishganida ayblaydi.”^{46[50]} Lekin, umuman olganda, BMT ma`lumotlariga ko`ra ham Erda bor xomashyo miqdori va energiya resurslari (optimal ishlatilsa) faqat 1 mlrd kishi uchun etarli. Vaholanki, 2000 yil va undan keyin aholi soni 8 mlrd. dan oshishi

^{43[47]} Belyaev M.I.Kontseptsiya russkogo natsionalnogo gosudarstva. - M.,2006.

^{44[48]} Kara-Murza S. Kontseptsiya "zolitogo milliarda" i Novi`y mirovoy poryadok.// http://burkina-faso.narod.ru/kara/oro_2.htm

^{45[49]} O`sha erda.

^{46[50]} Qarang: // <http://www.apn.ru/publications/article19369.htm>.

kutiladi. Bundan tabiiy ravishda o`sha “oltin milliard”ning AQSH, Yaponiya, IHM lariga kiruvchilardan tashkil topishi, asosiy xomashyo va energiya manbalarining egalari bo`lgan qolgan mamlakatlarning aholisi esa yuqoridagilarning koloniyalariga aylanishi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

G`arb mutaxassis olimlari shularni nazarda tutib va qolgan 7 mlrd. aholini tizginda tutib turish mumkin emasligini hisobga olib, XX asrning 90 yillarida davlatlarni “internatsionallashtirish va ularni bir biri bilan bog`lash” deb nomlangan yangi nazariyani ishlab chiqdilar. Bu nazariya mohiyatan kapitalni, tovarlarni va ishchi kuchini, oxir oqibatda esa butun xomashyoni ham yagona markaz tomonidan taqsimlanishi yo`lga qo`yiladigan va bu ishda TNKning xalqaro qurolli kuchlari “tartib va barqarorlik” o`rnatadigan jahon markazini yaratishni ko`zda tutadi. Uning amaliy dasturi esa Erning tabiiy va energetik resurslari ustidan nazorat qilishni jahonning sanoat-moliyaviy elitasi qo`liga topshirishni ko`zda tutadi, davlatlarning o`z tabiiy boyliklariga bo`lgan suverenitetini bekor qiladi, ya`ni diplomatlar xomashyolarning milliy “uylar”ga tarqalib ketishi xavfini olish maqsadini oldinga suradi.

“Oltin milliard” dasturining asosiga qo`yilgan demografik krizis muammosi akademik S.P.Kapitsa^{47[51]} tomonidan ham nazariy jihatdan o`rganilgandi. Uning insoniyat populyatsiyasining o`sishi qonunini tadqiq etib, chiqargan xulosasiga ko`ra 2030 yilga qadar planeta aholisi yo o`sishtan to`xtashi kerak, yoki uning depopulyatsiyasi (populyatsiya sifatida xalok bo`lishi) muqarrar.^{48[52]} Vaholanki, bular, o`z navbatida, ocharchilik, pandemiyalar (keng ko`lamli epidemiyalar), urushga olib keluvchi konfliktlarga va sh.k. olib kelishi kutiladi. SHuning uchun Rim klubi yordamida “oltin milliard” dasturi ishlab chiqilgani haqidagi fikrlarda asos bor.

Albatta, bu yangi strategiya, garchi, xatto u chetlab o`tilishi mumkin bo`lmagan zarurat ekani ilmiy asoslab berilgan taqdirda ham, u “oltin milliard” doirasiga kirmaydiganlar tomonidan qabul qilinishini tasavvur ham qilib

^{47[51]}Qarang: http://www.keldysh.ru/papers/2000/prep73/prep2000_73.html

^{48[52]} Leskov L.V. Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 7. Filosofiya. №3, 2001.40-61 -b.

bo`lmaydi. Uzoqni ko`ra biladigan ko`pchilik G`arb siyosatchilari bu katta ko`pchilikning reaksiyasi boshqacha bo`lishini – jahon tsivilizatsiyasining parchalanishi, xalok bo`lishi ehtimoli juda katta bo`lishini bashorat qilmoqdalar.^{49[53]} Bu esa global tsivilizatsion xalokat davri kelganini bildiradi. Aslida bu so`nggi xulosa yangilik emas. Zero barcha dinlarda bunday davr kelishi bashorat qilingan va u “oxir zamon” haqidagi esxatologik ta`limotlarda o`z ifodasini topgan. SHuning uchun bunda asl muammo kim saqlanish huquqi va imkoniyatlariga ega bo`lishi yoki ega bo`lmasligi kerakligida emas, balki oxiratga qanday ma`naviy qiyofa bilan borishda ekanini kimlardir hamon fahmlay olmay turganidadir. Lekin, endilikda G`arb faylasuflari va ruhshunoslari orasida ham mazkur krizisdan qutulish yo`li sifatida yoshlarning ongida revolyutsiya sodir etish, ularning dunyoqarashini insonparvarlashtirish zarurligi yo`lini ko`rsatayotganlar ham bor. Masalan, ushbu muammoga turli tomondan yondoshuvlar Timoti Liri, Robert Uilson, Stanislav Grof kabilar tomonidan oldinga surilgan.^{50[54]} Biz ham ayni shu xulosa tarafdorimiz. Ammo bu niyatlar qachon va qanday amalga oshishi hozircha noma`lum. CHunki, XVII asrlardan buyon shakllanib, rivojlanib, amaliyotda qo`llanib kelingan dunyoqarashning tub o`zgarishi qiyin.

II 3 . Globallashuv va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o`rtasidagi o`zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to`la ixotalanib olgan birorta ham davlat yo`q, deb to`la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a`zo bo`lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko`proq tushib qolishi mumkin. Bunday g`ayri ixtiyoriy ta'sir esa ko`pincha salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

^{49[53]} Hantington S. The Clash of Civilizations and the emaking of New World Order. N. Y., 1996.

^{50[54]} Qarang: Jurnal «Politicheskiy klass», № 9, sentyabr, 2006 y.

Globalashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni tan olish kerak — bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan ham shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Shu ma'noda, globalashuv hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.⁵¹

Globalashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Globalashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan baravar bo'ladi.

Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlarni kuzatish bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan darak beradi. Globalashuv milliy ma'naviyatga ham ta'sir o'tkazadi. Har qanday siyosat, jumladan, iqtisodiy siyosat va ma'naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo'lgandagina muvaffaqiyat keltirishini nazarda tutsak, bu masalada olimlarimiz siyosatchilarimizga etarli darajada ko'mak berishlarini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati ko'proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak, globalashuvning mohiyati, yo'nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq hamda tahlil qilish zarur. Aynan shu jarayonni

⁵¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. 111-бет.

chuqurroq tahlil etish orqali siyosatchilarning to'g'ri yo'l tanlashi va qarorlar qabul qilishi uchun imkoniyat yaratish mumkin.

Globallashuv turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir.

Mazkur atamaning mazmun-mohiyati xususida bahs-munozara davom etayotgan, bu borada yagona umumiy qarash shakllanmagan bo'lsa-da, lekin gumanitar ilmning turli sohalarida, chunonchi ijtimoiy fanlarda muayyan konsepsiya va yondashuvlar mavjud.⁵²

Dunyoning mafkuraviy manzarasi deganda, jamiyat taraqqiyoti qonunlari, uning rivojlanish tendensiyalarini muayyan ijtimoiy guruh, etnik birliklar, siyosiy kuchlarning o'ziga xos manfaatlaridan kelib chiqib talqin qilish va unga asoslangan holda insoniyat istiqbolini belgilashga qaratilgan mafkuraviy tizimlar majmui tushuniladi.

Tarix o'zga hududlarni zabt etish maqsadida olib boriladigan harakatlar doimiy takomillashib, qo'llanadigan usul va vositalar mukammalashib borganini ko'rsatadi. Bugungi kunda esa ushbu vositalarning miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlari yanada murakkab xarakter kasb etmoqda.

Insoniyat to'plagan urush qurollari butun Er sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo'q qilib tashlash darajasiga etdi. SHunday bo'lsada, kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi davrida turli siyosiy kuchlar va harakatlarning mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilishi oqibatida mutlaqo yangicha sifatga ega bo'lgan jarayonlar ham kuzatilmoqda. Bu o'z rivojlanish tarixiga ega dunyoning mafkuraviy manzarasining bugungi kundagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilab bermoqda.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk davrlarida deyarli barcha xalqlarda mifologiya universal xarakterga ega bo'lgan bo'lsada, bir tomondan, o'ziga xos xususiyatlarga ega ijtimoiy guruhlar va ularning ayricha manfaatleri ifodasi bo'lgan mafkuraviy tizimlar shakllanmagani, ikkinchi tomondan, Er yuzining turli nuqtalari o'rtasidagi aloqalar rivojlanmagani, kishilik jamiyati yagona organizmni

⁵² Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. –Т.: Маънавият, 2006. 8-бет.

tashkil etmagani uchun dunyoning yaxlit mafkuraviy manzarasi haqida gapirish mumkin emas.⁵³

Xalqlar, davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar kuchsiz bo'lgan bir davrda monoteistik dinlarning yuzaga kelishi, ularning o'z hukmronligini o'rnatish yo'lida olib borgan kurashi natijasida dunyoning diniy qarashlar ustuvor bo'lgan ilk mafkuraviy manzarasi shakllandi.

Jahon dinlari tarqalgan hududlar nisbatan barqarorlashgan (to'g'rirog'i muayyan diniy ta'limotlarni yoyish uchun olib borilgan urushlar asosan to'xtagan) bir sharoitda dunyoda iqtisodiy hukmronlik uchun kurashning boshlanishi, ilmiy bilimlarning rivojlanishi, xalqlar, davlatlar o'rtasidagi aloqalar qamrovining kengayishi dinning g'oyaviy regulyatorlik rolining asta-sekin pasayishiga olib keldi.

Qisqa vaqt davomida alohida mavqega talabgorlik qilgan natsizmni inobatga olmaganda, asosan sotsialistik va burjua mafkuralari orasida borgan kurash esa ("uchinchi yo'l"ga da'vogarlik qilganlar ham aslida u yoki bu darajada ularning ta'siri ostida edi) dunyoning mafkuraviy manzarasi rivojidadagi yangi bosqichni boshlab berdi. U hukmronlik uchun kurashda g'oyaviy omilning o'rni va ahamiyati yanada oshganini ko'rsatish barobarida global konfrontatsiya asosiga qurilgan mafkuraviy manzaraning shakllanishiga olib keldi.

Ushbu mafkuralar o'rtasidagi kurash barham topgan hozirgi davrda esa o'ziga xos xususiyatlarga ega dunyoning yangi mafkuraviy manzarasi qaror topmoqda.

Bugungi kunda aksariyat davlatlarning mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haq-huquqlari va erkinligi, ijtimoiy, siyosiy, etnik, konfessional totuvlik va bag'rikenglik g'oyalari ustuvor.

Shunday bo'lsada, insoniyat istiqbolini belgilashda universallikka da'vogarlik qilayotgan va transmilliy xarakterga ega g'oyaviy qarashlar dunyoning

⁵³ Саранг: Эргашев И. Миллий истиелол жоysi ва раiбар фаолияти. –Т.: Академия, 2007.

mafkuraviy manzarasi mazmunini belgilab berishda ustuvorlikka intilayotganini ham ta'kidlash zarur.

“Ramziy zo‘ravonlik orqali amalga oshirilayotgan madaniy globalashtirish (uni g‘arblashtirish deb atasa ham bo‘ladi) aslida shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning soxtalashishi, hattoki uzilishiga olib kelishi mumkin, chunki o‘zga madaniyat tushunchalari (ramzlari) insonni shakllantiruvchi, uni to‘laqonli shaxsga aylantiruvchi o‘z madaniy ildizlaridan, qadriyatlarini tizimidan ayiradi”.⁵⁴

Kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi davrida “turli xil eski va yangi mafkuralarning o‘zaro kurashi har qachongidan ham ko‘ra shiddatli tus olmoqda, - deb yozadi Prezidentimiz. - Rang-barang, ba‘zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o‘rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib to‘qnashuvlar, ommaviy qirg‘inlarga sabab bo‘lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg‘u-kulfatlar solmoqda”.⁵⁵

Inson ongi va qalbi uchun kurash yangi sifatli xususiyat kasb etgan bir davrda, e‘tiqod umumiylikiga asoslanish (masalan, panislomizm), etnik birlikka urg‘u berish (masalan, panslavizm, panturkizm, paneronizm) va yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy makonda yashash natijasida yuzaga kelgan bog‘liqlikni ro‘kach qilish asosida (masalan, pansovetizm) yakka mafkuralar hukmronligini ta‘minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo‘lib olishga urinishlar kuzatilayotganini ta‘kidlash zarur.

Dunyoning mafkuraviy manzarasiga xos mohiyatni chuqurroq va teranroq anglash inson ongi hamda qalbi uchun olib borilayotgan tinimsiz kurashning asl maqsadlarini to‘g‘ri tushunib etishga, mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka tahdid soluvchi g‘oyalarning oldini olishga qaratilgan tegishli ma‘rifiy ishlarni izchil va tizimli tashkil etishga xizmat qiladi.

⁵⁴ Саидов У. Глобализация и культуры народов. –Т.: Академия, 2008. 66-бет.

⁵⁵ Саранг: Каримов И.А. Янгича фикрлар ва ишлаш - давр талаби. 5-ж. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997.

Siyosiy sohada bu jarayon davlatning ishtirokisiz kechmasligi tushunarli. O'tmish an'anaviy-agrar jamiyatlardagi o'z-o'zicha chegaralangan, bir-biridan ajratilgan ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar, masalan, qabilalar, ularning davlat birlashmalari, shuningdek, keyinroq paydo bo'lgan milliy maqomdagi davlatning o'zaro aloqalari bulardagi o'z-o'zicha yetarlilikdan farqli o'laroq industrial jamiyatlarda mintaqadagi kuchli mamlakat tevarak-atrofga belgilovchi ta'sir ko'rsatib muayyan davlat birlashmalarini vujudga keltiradi. shu yo'l bilan savdo, keltiriladigan xomashyo ustidan nazorat o'rnatadi. hamda tegishli tarzda foyda qiladi.

Globalizatsiya bu sohada muayyan iqtisodiy manfaatlar tashvishlarining doirasini ifodalaydi. ayni vaqtda, mamlakat xizmati va xalqaro tashkilotlar ham bularning talablariga binoan ish ko'rishi lozim. milliy hukumatning vazifalari hududiy-davlat chegaralaridan tashqariga chiqadi. xalqaro tashkilotlar, o'z navbatida, masalalarni hal qilishda ba'zi o'rinlarda hukumat darajalarida ish ko'radilar. Siyosiy globallashuv hozirgi maqomini xx asrning o'rtalaridan oladi

Siyosiy sohada bu jarayon davlatning ishtirokisiz kechmasligi tushunarli. O'tmish an'anaviy-agrar jamiyatlardagi o'z-o'zicha chegaralangan, bir-biridan ajratilgan ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar, masalan, qabilalar, ularning davlat birlashmalari, shuningdek, keyinroq paydo bo'lgan milliy maqomdagi davlatning o'zaro aloqalari bulardagi o'z-o'zicha yetarlilikdan farqli o'laroq industrial jamiyatlarda mintaqadagi kuchli mamlakat tevarak-atrofga belgilovchi ta'sir ko'rsatib muayyan davlat birlashmalarini vujudga keltiradi. shu yo'l bilan savdo, keltiriladigan xomashyo ustidan nazorat o'rnatadi. hamda tegishli tarzda foyda qiladi.

Globalizatsiya bu sohada muayyan iqtisodiy manfaatlar tashvishlarining doirasini ifodalaydi. ayni vaqtda, mamlakat xizmati va xalqaro tashkilotlar ham bularning talablariga binoan ish ko'rishi lozim. milliy hukumatning vazifalari hududiy-davlat chegaralaridan tashqariga chiqadi.

Xulosa

Men bu kurs ishimni yozib o'z bilimlarimni yanada boyitdim, xususan o'zimga berilgan bu mavzu yuzasidan ko'plagan malumotlar to'pladim va shu mavzu yuzasidan ko'plagan bilimlarga ega bo'ldim. Xususan globallashuv jaroyoning kelib chiqishi bu yaqin davrlarga kelib tarqaladi deb o'ylardim, bu kurs ishimni yozmagunga qadar bo'lganch vaqtgacha edi. Ammo men bu kurs ishimni yozib men yanglishgan ekanligimni tushindim. Bu globallashuv jarayonlari qadim davrlarga borib tarqalar ekan. Misol tariqasida aytadigan bo'lsam Makidoniyalik Aleksandirning ko'plagan yerlarni bosib olib va shu yerlarda o'zining hukmronligini o'rnatganligi. Va shu bosib olgan yerlarning yoki mamlakatlarning birgalikda yashab ketishlar boshqa bir davlatning keying bir qaram davlatga o'zining madaniyati, qadriyati analari kirib borishini aytsak bo'ladi. Makidoniyalik Aleksandirdan keyingi davrlarda Yuli Sezrning hukmronligi davrida ko'plagan joylarning bosib olganligani va shu bosib olgan joylarda yuqorida aytib o'tgan madaniyatlarning kirib kelishi shular jumlasidandir. Bunday voqealar tarixda ko'p marotava kuzatilgan hodisalar bo'lganligi bizga tarixdan bizga ayomdir. Ammo bu davrlardagi voqealarni globallashuv deb aytishmagan edi. Ammo XX asr oxiriga kelib esa bu bo'lib o'tgan voqealar va hozirda bo'layotgan har xili voqealar bu globallashuv atamasining kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Va bunday jarayonlar globallashuv jaroyonlari ekanligini bizga ko'plagan olimlarimiz isbotlab berishdi. Bu globallashuv jarayoniga harkim turlicha tarif bergan. Xususan prezidentimiz I.Karimov Globallashuv bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir, deb ta'rif bergan. Hozirgi kunga kelib globallashuv jarayoni ko'plagan soholarda kuzatilmoqda, va bu globallashuv tasiriga tushmagan davlatning o'zi yoqdir. Barcha davlatlar bu jarayonning ishtirokchisi hisoblanadi.

Foydalangan Adabiyotlar.

I O'zbekiston Respublikasi Prezident asarlari.

- I. 1. Karimov A.I Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild Toshkent 1995
- I. 2. Karimov A.I O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlastirish yo'lida. 3-jild Toshkent 1995.
- I. 3. Karimov I.A O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikga taxdid barqororlik shartlari va tarixiy kafolati
- I. 4. Karimov I.A Ozod va obod vatan-erkin va faravon hayot qurish pirovar maqsadimiz. 8-jild Toshkent 2000.
- I. 5. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asari. Toshkent 2008.
- I. 6. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild.-T.: O'zbekiston, 2002 yil.
- I. 7. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild.-T.: O'zbekiston. 2003 yil.
- I. 8. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizlik o'z kuch – qudratimiz, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild.-T.: O'zbekiston, 2004 yil.

II. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

II.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston. 2003

II.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kamolot yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida” gi qarori. // “Xalq so'zi”, 2006 yil 10 oktabr. II.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida” gi qarori. // “Xalq so'zi”, 2006 yil 26 avgust.

II.4. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri)-T.: Adolat. 1998.

II.5. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi.-T.: Adolat. 1998.

II.6. “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida” gi Qonun. 1991.

III. Foydalanilgan maxsus adabiyotlar.

- III. 1. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T.: Ma`naviyat, 2006. 8-b.
- III. 2. Ochildiev A Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. Toshkent 2009.
- III. 3. Otamuroto'va S Globallashuv va millat. Toshkent yangi asr avlodi. 2008.
- III. 4. Malakadoshlar to'plami. Toshkent 1994.
- III. 5. Umoro'v B Globallashuv ziddiyatlari Toshkent 2006.
- III. 6. Saidov U Globallashuv va madaniyatlar aro muloqat.Toshkent 2008.
- III. 7. O'zbek Milliy ensiklopediyasi. 1-12 jildlar.-“O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi ” Davlat nashriyoti.-T.: 2000-2006 yillar.
- III. 8. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – taraqqiyot omili. (konferensiya materiallari).-T.: 2003 yil.
- III. 9.“Mustaqillik”(izohli ilmiy – ommabop lug'at), -T. “Sharq”. 200 yil.
- III.10.“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti”. (darslik), -T.: 2001 yil.
- III. 11.Ochildiyev A. “Milliy g'oya va millatararo munosabatlar”.-T. “O'zbekiston”. 2004 yil.

